

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOY-IQTISODIY FAKULTETI

Ijtimoiy ish kafedrası
“Ijtimoiy ish” yo’nalishi
13.464 guruh bitiruvchisi
Po’latov Shohruxbekning

**“O’zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning
muhim tamoyillari” mavzusidagi**

BITIRUV
MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: F.Turg’unboyev

“Ijtimoiy ish” kafedrası dotsenti,
falfafa fanlari doktori.

Farg’ona – 2017 yil

Mundarija:

Kirish.....

I bob. Ijtimoiy siyosatning maqsadi, mazmuni va asosiy yo'nalishlari.....

1.1.Ijtimoiy siyosat tushunchasining mazmun va mohiyati.....

1.2.Ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari va vazifalari.....

II bob. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy tamoyillari.....

2.1. O'zbekistonda ijtimoiy sohalarni rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlarning o'ziga xos xususiyatlari.....

2.2.Ijtimoiy sohalarni rivojlantirish – O'zbekiston ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida.....

Xulosa va tavsiyalar.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....

K I R I S H

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. Kuchli ijtimoiy siyosat respublika iqtisodiyotini isloh qilishning eng muhim tamoyillaridan biridir. Ijtimoiy siyosat orqaligina shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari ro'yobga chiqishini ta'minlashga, oilalarning, har bir alohida insonning faravonligini yaxshilashga doir chora-tadbirlarning keng majmuasi amalga oshiriladi.

Barqaror jamiyat uchun bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'nalishi zaruriy holatdir. Bu inson manfaati, himoyasi, uning turmush darajasi, muammosidan kelib chiqib, jamiyat bozor munosabatlari kommunikatsiyalariga, ular yuzaga keltiradigan salbiy oqibatlariga befarq bo'la olmaydi. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash iqtisodiy islohotlar dasturidagi uzluksiz ustivor yo'nalishlardan biriga, ya'ni islohotlarning hamma bosqichlarida ustivor hisoblanadigan vazifalar qatoriga kiradi. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining yetakchi tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosatdir.

Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri- bularning barchasi, avvalambor, zamon talabiga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz.

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo'nalish - bu narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi. Bunda respublikaning o'ziga xos yondashuvi ishlab chiqilib, daromadlar nisbatini o'zgartirish, ishhaqi, pensiyalar, stipendiyalarning, jamg'arma banklardagi aholi omonatlari stavkalarining eng oz miqdorini bir vaqtning o'zida qayta ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi. Daromadlar nisbatini o'zgartirishda 1993 yil joriy etilgan yangi yagona ta'rif setkasi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu barcha toifadagi xodimlarning mehnathaqi miqdorlarini tarif koeffitsientlari orqali, eng

kam ishhaqi vositasi bilan bevosita o`zaro bog`lash imkonini berdi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning ikkinchi yo`nalishi - ichki iste`mol bozorini himoya qilish, hamda oziq-ovqat mahsulotlari va oziq-ovqat mollari asosiy turlari iste`molini muayyan darajada saqlab turish bo`ldi. Bunga erishishda muhimi mahsulotlar eksportini bojxona tizimi orqali nazorat qilish va ularga yuqori boj to`lovlari joriy etish, kundalik zarur tovarlarni me`yorlangan tarzda sotishni tashkil qilish kabi tadbirlar katta ahamiyatga ega bo`ldi. Iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning uchinchi yo`nalishi aholining kam ta`minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo`llab-quvvatlash borasida kuchli chora-tadbirlar o`tkazilganligi bo`ldi. Bu yo`nalishda aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari pensionerlar, nogironlar, ko`p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o`quvchi yoshlar hamda qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilar turli xil yo`llar bilan himoya qilib borildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyovning 2017 yil 7-fevral kungi PF-4947 sonli Farmoni bilan 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha "HARAKATLAR STRATEGIYASI" e`lon qilindi. "HARAKATLAR STRATEGIYASI" o`z mohiyatiga ko`ra quyidagi ustuvor yo`nalishlarga bo`linadi:

- I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo`nalishlari.
- II. Qonun ustuvorligini ta`minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo`nalishlari.
- III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo`nalishlari.
- IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlari.
- V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag`rikenglikni ta`minlash hamda chuqur o`ylangan, o`zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo`nalishlar.

“HARAKATLAR STRATEGIYASI”da qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta’sirini kuchaytirishga yo’naltirgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish, davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta’minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish, xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sudyalalar va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag’batlantirish va ijtimoiy ta’minot darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, fuqarolarning murojaatlarini o’z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko’rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo’lish holatlariga yo’l qo’rganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko’rish, odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo’jalik sud ish yurituvining protsessual asoslarini takomillashtirish, makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o’rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o’zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o’sish sur’atlarini ta’minlash, tarkibiy o’zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish, aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta’minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo’yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish, byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyatsiya sur’atlaridan yuqori

miqdorda izchil oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish kabi vazifalar ko'rsatib qo'yilgan bo'lib. Bu o'z navbatida bitiruv malakaviy ishi mohiyatini to'laqonli yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek so'ngi yillarda mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimida ham bir qator islohotlar olib borilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 22-fevral kunidagi "Aholining zaif qatlamlarini ijtimoiy himoya va tibbiy-ijtimoiy yordam bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-4782-sonli Farmoni va 24-fevral kunidagi PQ-2499-sonli qarori, 2016 yil 31 oktyabrda "Aholini dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga doir chora tadbirlar to'g'risida"gi va 2017 yil 3-aprelda "Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari qabul qilinganligi yuqoridagi fikrlarimizning izohi sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi globallashuv davrida sog'lom, yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashga intilish jamoatchilik oldida turgan dolzarb vazifadir. Bu o'rinda birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Bilimga chanqoq, iste'dodli yoshlarni topib ularni Vatanga fidoyi insonlar qilib tarbiyalash muqaddas vazifadir"¹. Shuning uchun ham, mustaqillikning ilk kunlaridanoq yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarning tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirishga alohida e'tibor berildi. Xususan, 1991 yil 20 noyabrda qabul qilingan "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunda yoshlarga oid siyosatning mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Shuningdek, 1997 yili 29 avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", 2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi, "Yoshlarning

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. - Toshkent: O'zbekiston, 2008. - B. 11.

huquqiy ta'limini takomillashtirish kompleks dasturi", "Sog'lom avlod yili", "Yoshlar yili", "Barkamol avlod yili", "Mustahkam oila yili", "Sog'lom bola yili" davlat dasturlari, 2014 yil 6 fevralda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-2124-sonli qaror² va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar sog'lom, ma'naviyati yuksak, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi mustaqil O'zbekiston ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim tamoyillarini o'rganib chiqish, ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishi - ta'lim tizimining isloh qilinishi, mamlakat ijtimoiy hayoti rivojida ta'lim tizimining o'rnini, aholi real daromadlarini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalarini yoritib berishdan iborat.

Yuqorida ta'kidlangan maqsadlarga erishish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- Ijtimoiy taraqqiyotda ijtimoiy sohaning roli, mohiyati va xususiyatlari o'rganish;
- Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlatning rolini nazariy o'rganish;
- Sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish;
- O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish yo'nalishlarini o'rganish;
- Tashkilotlarda menejment omillarining qo'llanish xususiyatlarini tahlil etish;
- Bitiruv malakaviy ishi yuzasidan xulosa va takliflar tizimini ishlab chiqish kabilardan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti – O'zbekiston ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim tamoyillarini, ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishi - ta'lim tizimining isloh qilinishi, aholi real daromadlarini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari hisoblanadi. .

² "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-2124-sonli qaror 2014 yil 6 fevral // Xalq so'zi, 2014 yil 8 fevral

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-uslubiy asosi: Bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari hamda ma'ruzalari, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga oid ilmiy adabiyotlar, mamlakatimizda iqtisodchi olimlarning ushbu muammoga bag'ishlangan tadqiqotlari natijalaridan hamda jahon va MDH olimlari asarlarida muammoga oid ilgari surilgan g'oyalar, shuningdek, ijtimoiy ish xodimi faoliyatini belgilovchi respublikamizdagi va xalqaro huquqiy-normativ hujjatlarda ko'rsatilgan qoidalar tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati keng qamrovli bo'lib, tadqiqotning xulosa qismidagi tavsiyalardan amaliyotda, O'zbekiston ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim tamoyillarini , ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishi - ta'lim tizimining isloh qilinishi, aholi real daromadlarini oshirish, kichik bines va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid umumiy o'rta ta'lim, oliy va o'rta maxsus kasb ta'limi muassasalarida keng foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining strukturaviy tuzilishi. Tadqiqot ishi kirish, ikkita bob, to'rt paragraf, xulosa va foydalanigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Xulosa va takliflar qismida O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat, ta'lim tizimini isloh qilish, aholi real daromadlarini oshirish, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish va takomillashtirishga bog'liq asosiy xulosa va tavsiyalar shakllantirilgan.

I bob. Ijtimoiy siyosatning maqsadi, mazmuni va asosiy yo'nalishlari.

1.1. Ijtimoiy siyosat tushunchasining mazmun va mohiyati.

“Ijtimoiy siyosat”- davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy sohadagi barcha jarayonlarni tartibga soladi, shuningdek, inson omilini to'la namoyon bo'lishiga yordam beradigan va mujassam qiladigan jarayon. Demak, ijtimoiy siyosat keng ma'noda jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy hayoti, davlat hokimiyati, uning ichki va tashqi faoliyati, siyosiy tashkilotlar va harakatlarning hokimiyatga munosabati, uni boshqarishda siyosiy manfaatlarni amalga oshirishning ustivor yo'nalishlarini o'zida ifoda etadi.

Siyosat – bu davlatni, jamiyatni boshqarish san'ati va mahorati, turli tabaqa guruhlarining o'zaro munosabatlari bilan bog'liq faoliyat doirasidir.

Davlatimiz, jamiyatimiz mustaqillik sharoitida olib borayotgan siyosatining eng birinchi maqsadi – xalqimiz uchun, yurtimizda yashayotgan har bir inson uchun munosib hayot sharoiti barpo etish, tinch osuda va farovon hayotimizni mustahkamlashdir.

Ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismlaridan biri bu – siyosiy madaniyatdir. Mamlakat fuqarosining siyosiy madaniyati mamlakatda barqarorlik, totuvlik, ijtimoiy-iqtisodiy muvaffaqiyatlarni ta'minlash, shuningdek, siyosiy tizimning eng muhim belgisi sifatida kishilarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita va bilvosita ishtirokini ifoda etishi darkor.

Siyosiy madaniyat xalqning siyosiy tafakkur tarzini, siyosiy hayotni idrok etishda, uning tarixiy negizlari, milliy davlatchilik bilan bog'liq an'analari, xalqning ma'naviy mulkiga aylangan siyosiy qadriyatlari, siyosiy hokimiyatga bo'lgan munosabatida, siyosiy voqelikka baho berishda namoyon bo'ladi. Ma'lumki, mustaqillik mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar ayni inson manfaatlarini mukammal ravishda amalga oshirish, xalqimiz uchun farovon turmush tarzini yaratishdek ezgu maqsadlarga yo'naltirilgan.

Siyosiy madaniyat turli ijtimoiy guruhlarining davlat hokimiyatiga, siyosiy tashkilotlarga, ularning jamiyat hayotidagi roliga, boshqa davlatlar va millatlar bilan munosabatlar va shu kabilarga qarashlarning tizimga solingan nazariy ifodasidir. Demak, siyosat – davlatni, jamiyatni boshqarishda muayyan maqsadlarga erishishni ko'zda tutishi, turli ijtimoiy guruh va qatlamlar hamda davlatlar o'rtasidagi munosabatlar muvozanatini saqlab turuvchi xalqning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ehtiyojlarini yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqib amalga oshiruvchi vositadir.

Ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismlariga ijtimoiy himoya masalalari ham kiradi. Ijtimoiy himoya deganda biz avvalo, aholining kam ta'minlangan qatlami uchun turmush darajasi va uni yaxshilovchi chora-tadbirlar tizimini tushunishimiz kerak. Gap ijtimoiy himoya tizimining ustivorligi haqida borar ekan, bunda eng avvalo birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, - "Qashshoqlikni tugatish muammolarini hal etishda aholining vujudga kelgan vaziyatlar tufayli kambag'allik darajasiga tushib qolishi mumkin bo'lgan "nochor guruhlari": nogironlar, yolg'iz onalar, yetim bolalar, keksalarga alohida e'tibor berish talab qilinadi"¹.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy siyosat fani mamlakatdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Aynan shu ma'noda ijtimoiy sohani tartibga solishda amal qilib kelayotgan: qonun ustivorligi, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish, kuchli ijtimoiy siyosat, davlat bosh islohotchi, iqtisodiyotni siyosatdan ustivorligi kabi tamoyillarni talabalar ongiga singdirishda ham ushbu fan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng mamlakatimizda demokratik tamoyillar ijtimoiy taraqqiyot uchun asos qilib olindi va bu borada fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, davlat tuzilishini demokratlashtirish, bozor islohotlarini chuqurlashtirish, xususiy mulkni, tadbirkorlikni, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash kabi masalalar o'z yechimini topmoqda. Mazkur

¹Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, 224-bet

muammolarni hal etish ijtimoiy siyosat fanining maqsad va vazifalari doirasiga kirib, ularning ichida ijtimoiy himoya masalasiga alohida e'tibor qaradi.

Fuqarolarning ishsizligi, ularning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan aziyat chekishi, ishlab chiqarishda shikastlanishi yoki kasb xastaligiga yo'liqishi, nogironligi uchun daromadidan mahrum bo'lishi kabi holatlarni oldini olishda dastlab g'arb sotsiologiyasi fani asta-sekin o'rgana boshladi. Jumladan, ijtimoiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-tibbiy, psixologik, ijtimoiy-huquqiy xizmat va moddiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy moslashtirishni o'tkazish, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan fuqarolarni tiklash va qayta tiklash bo'yicha ijtimoiy xizmat faoliyatlari bo'yicha tadqiqot ishlarini olib boradi.

Insoniyatda ijtimoiy ong shakllangandan boshlab u farovon hayotni orzu qilib kelgan. Lekin bunday hayotga yetish uchun inson o'zi yashab turgan jamiyatni o'zgartirishi kerakligini tushunib yetishi kerak. Bu esa bevosita insonlarning ongi, siyosiy madaniyatiga bog'liq bo'lgan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat ma'lum bir masalaga qaratilgan bo'lib, ya'ni, "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyat sari" tamoyiliga asoslangan holda amalga oshirilayotganligi fikrimiz dalilidir. Buni hokimiyat vakolatlarining ma'lum bir qismi mahalliy hokimiyat organlari bo'lgan mahalla va qishloq fuqarolar yig'inlariga o'tganligida, shuningdek, siyosiy partiyalar, fuqarolik institutlarining faoliyatlarida davlat ahamiyatiga molik eng muhim qarorlarni qabul qilishdagi rolini ta'kidlash mumkin. Ayniqsa, axolining turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, mamlakatimizda shakllanayotgan fuqarolik jamiyatining asosiy institutlari bo'lgan nodavlat va jamoat tashkilotlarning o'rni ham oshib bormoqda.

Hozirgi zamon ijtimoiy-siyosiy tizimning muhim belgisi bu demokratik tamoyillarning jamiyatga izchil tadbiq etilishida ko'zga tashlanadi. Mamlakatda demokratik jarayonlarning shakllanib borishi natijasida fuqarolik jamiyatining poydevori mustahkamlanib boradi.

O'tmishdagi qarashlar insoniyat taraqqiyotining zaruriy ehtiyoji, inson va jamiyat, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy tizimlarning o'zaro munosabati in'ikosi, aks etishi sifatida vujudga kelgan va rivojlanib borgan.

O'tmishda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy qarashlar quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Birinchidan, insoniyat jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida vujudga kelgan jamiyat to'g'risidagi qarashlar mifologiyaga, ya'ni afsonalar, rivoyatlarga asoslangan. Ularda butun olam, jumladan, jamiyat ham Oллоh yoki qandaydir ilohiy osmon kuchlari tomonidan yaratilgan, davlat, siyosat, hukmdor ilohiy kuchning yerda, jamiyatda paydo bo'lishi va faoliyat ko'rsatishi deb tushuntirilgan. Yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, johillik va nodonlik, urush va tinchlik va hokazolar Tangrining hohish- istagi bilan ro'y beradi, falak tomonidan avvaldan belgilab qo'yilgan, degan qarashlar ilgari surilgan.

Ikkinchidan, jamiyat haqidagi dastlabki ijtimoiy-siyosiy qarashlar ma'naviy-ahloqiy, ahloqiy-siyosiy mazmun bilan sug'orilgan. Jamiyatda sodir bo'ladigan barcha narsa va hodisalar insonning ehtiyojlari, odob-ahloqi bilan bog'liq holda izohlanadi. "Davlat, siyosat va hukmdorlarning faoliyati insoniylikka, mehr-shafqatga, adolatga, ahloq normalariga asoslanishi zarur"- degan g'oya singib ketgan. Bu g'oyalar, ayniqsa, SHarq falsafasi ijtimoiy-siyosiy qarashlarining mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Jamiyat haqidagi o'tmishdagi eng qadimiy g'oyalar va qarashlar eramizdan avvalgi II-I ming yilliklar davomida Vavilion, Misr, Mesopatamiya, Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Gretsiya, Rim hududlarida vujudga kelgan. Jamiyat va uning ijtimoiy-siyosiy tizimi haqidagi ta'limotlar ma'lum darajada tartibga solingan. Jumladan, qadimgi Xitoy mutafakkirlari eramizdan avvalgi X-VI asrlardayoq jamiyat, inson, ijtimoiy qatlamlar, davlatning vazifalari to'g'risida o'zlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini bayon qilganlar. Xitoy falsafiy-ahloqiy, ijtimoiy-siyosiy ta'limotlarining rivojlanishi ulug' mutafakkir olim Konfutsiy (er.av. 551-479) nomi bilan bog'liqdir. Uning ta'limotlari ko'p

asrlar davomida Xitoy, Koreya, Yaponiya, Vyetnam kabi xalqlarning ma'naviy-ahloqiy, ijtimoiy-siyosiy hayotida mustahkam o'rin egallab keldi. Mutafakkir va uning izdoshlarining g'oyalarida insoniylik ijtimoiy taraqqiyotning qonuni, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy-ahloqiy va siyosiy munosabatlarning majmui sifatida ulug'lanadi.

Konfutsiy davlatni oilaga, davlatni boshqarishni katta oilani boshqarishga o'xshatadi. Uning fikricha Davlat, garchi falakning yerdagi mahsuli bo'lsa-da, u insoniylik, odob-ahloq, adolat normalari asosida boshqarilishi kerak. Insonlar o'rtasidagi o'zaro bir-biriga hurmat, bilimga intilish, donishmandlik, olimlikni egallash kabi g'oyalar mutafakkir ta'limotida asosiy o'rin egallagan. SHuningdek, jamiyat adolatli, odob-ahloqqa asoslangan bo'lishi lozimligi ta'kidlangan.

Hindistonning ijtimoiy-siyosiy qarashlari hind xalqining muqaddas qadimiy dostonlari – “Mahobhorat”, “Ramayana”, “Bxagavagita”, “Veda”larda mujassamlashgan bo'lib, ularda ahloq, tinchlik, adolat, yaxshilik va yomonlik, mehribonlik, ijtimoiy ko'mak kabi g'oyalar ilgari suriladi. Hindistonda ijtimoiy-siyosiy kurashlar Gautama Buddha (er.av.624-544) tomonidan amalga oshirilgan va targ'ib qilingan. U Gautama qabilasining podshosi xonadonida tavallud topgan bo'lsa-da, butun umri davomida insonni erkin qilish, azob-uqubatdan qutilish g'oyasini targ'ibotchisiga aylandi. Uning fikricha, inson bunday azob-uqubatlardan ozod bo'lishi uchun o'z hohish-istaklaridan voz kechishi va sakkiz hildagi olijanob yo'lga ega bo'lishi kerak bo'lgan. Jumladan, odil nuqtai nazar, odil niyat, odil so'z, odil hulq, odil hayot, odil ta'limot, odil mushohada va odil fikrlashdir. Demak, Qadimgi Xitoy va Hindistonda ijtimoiy siyosat o'z davrida katta kuchga ega bo'lgan.

Qadimgi davr faylasuflaridan hozirgi zamon mutafakkirlarigacha fuqarolarning ijtimoiy tengligi va ijtimoiy hayotda huquqiy-siyosiy me'yorlarga teng rioya etishiga oid juda ko'plab dono fikr-mulohazalarni bildirganlar. Zardo'shtning “Avesto” kitobida ushbu g'oyalar o'z aksini topgan. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, “Avesto”da kishilarni yaxshi va farovon hayot

kechirishlari uchun yolg'on gapirish, birovni aldash kabi gunoh ishlardan o'zini tiyish kerakligi belgilangan. "Zabardast va qudratli bo'lish uchun haqiqat yuzasidan amal qilsang, zabardast va qudratli bo'lasan"- deb Zardo'sht o'z ta'limotini xalq orasida keng yoyishga harakat qilgan.

Bundan tashqari "Avesto"da jamiyat tarixi haqidagi g'oya bilan bir qatorda inson, tabiat va jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ularning mohiyati to'g'risida ham qiziqarli ma'lumotlar mavjud. Jumladan, mehnatsevarlik, adolat, halollik, yaxshilik, kishilar o'rtasidagi mehr-oqibat masalalari kitobning asosini tashkil qiladi. Zardo'sht ta'limotining yana bir muhim tomoni shundaki, ijtimoiy zulmga qarshi kurashish imkoniyati ko'ratiladi, bunda inson, uning ahloqiy qarashlari ham qamrab olinadi. unda imonli bo'lish, doimo toza, pok yurish, shayton-iblislariga qarshi harakatlar qilish, gunoh ishlardan tiyilish kabi fikrlar orqali inson mavqei ulug'lanadi.. Jamiyatdagi barcha yomonlik va yovuzliklar odamlarning imonsizligidan kelib chiqishi, imonli kishilar esa ularni bunday yo'ldan qaytarishlari, hamda kishilarning kechirimlik bo'lishlari belgilab qo'yilgan. Eng muhimi shundaki, "Avesto" qadim davrlardan Markaziy Osiyo hududida yashagan xalqlarning diniy va dunyoviy mafkurasi, ijtimoiy-siyosiy hamda ma'naviy tarbiya masalalarini o'rganishda asosiy manbaa bo'lib kelgan. Binobarin, zardo'shtiylikning ahloqiy negizlarida ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal kabi tamoyillar yotadi.

Qadimgi Gretsiyada jamiyat haqidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar eramizdan avvalgi VI-V asrlarda vujudga kelgan bo'lib, bu davr mutafakkirlaridan Pifagor, Sokrat, Platon, Aristotellar inson va jamiyat, davlat va siyosat to'g'risidagi o'lmas ta'limotlarni qoldirganlar. Jumladan, Afina falsafa maktabining asoschilaridan Sokrat ijtimoiy siyosatga oid biror narsa yozib qoldirmagan bo'lsa ham og'zaki tarzda o'z fikrlarini targ'ib qilgan. Uning shogirdlari Platon va Ksenafontlar esa Sokratning adolat, haqiqat, odob-ahloq kabi g'oyalarini qo'llab-quvvatlab, jamiyatni adolatli tashkil qilish uchun ahloqli, adolatli, ijtimoiy-siyosiy bilimga ega bo'lgan "eng yaxshi" fuqaro bo'lishi kerakligi, shuningdek, ular insoniy yaxshilik va ijtimoiy adolatni o'zaro

muvoftlashtirish orqali ijtimoiy taraqqiyotni izchil yo'lga qo'yish mumkinligini ta'kidlashadi. Palatonning ijtimoiy-siyosiy ta'limotida ideal davlat to'g'risidagi g'oyalar asosiy o'rin egallaydi. Yillar o'tishi bilan qonunlarga muhtoj bo'lmagan ideal davlat, adolat, jamiyat to'g'risida yozgan faylasuf o'zining "Qonunlar" nomli asarida davlatga cheklanmagan va nazoratsiz huquq berish, individual va ijtimoiy hayotni qattiq chegaralashni, ularni o'zaro bo'ysundirish va kelishtirish zarurligini e'tirof etadi. SHunday bo'lsa-da Platon qarashlari keyingi asrlarda ijtimoiy-siyosiy tafakkur rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatdi.

Entsiklopedist olim va faylasuf Aristotel (384-322) jamiyat hayotining rivojlanishi, uning ijtimoiy-siyosiy tuzilishiga bag'ishlangan bir qator asarlar yozib qoldirgan. Uning mashhur "Siyosat" nomli asari to'liq jamiyatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga bag'ishlangan bo'lib, oila va ularning ijtimoiy muammolarini hal etish yo'llari ko'rsatib beriladi. Uning ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashining pirovard maqsadi "baxtli va go'zal hayot"ni ta'minlash, shuningdek, asosiy vazifalardan biri fuqarolarning ahloqiy fazilatlarini tarbiyalash bo'lgan.

Ijtimoiy-siyosiy fikrlar rivojlanishida Rimlik mutafakkirlar TSitseron (106-43), Tit Lukretsiy Kar (99-55), Seneka Lutsiy (er.av. 5 asr) kabi faylasuflarning ham hissalarini katta. Jumladan, Tit Lukretsiy Karning ijtimoiy hayot, jamiyat haqidagi qarashlari insoniyat ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotiga bag'ishlangan asarlarida o'z ifodasini topgan.

Mashhur davlat arbobi, notiq TSitseron o'z asarlarida grek mutafakkirlarining gumanistik va hayotiy g'oyalarini davom ettirib, siyosiy faoliyatning insoniylik mohiyatini va uning yuksak ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi. SHuningdek, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni ahloq bilan bog'liq holda tushuntiradi. Mutafakkir o'zining "Yaxshilik va yomonlik chegarasi haqida", "Taqdir haqida", "Do'stlik haqida", "Qonunlar haqida" nomli qator asarlarida ijtimoiy taraqqiyot va unda fuqarolarning ahloqi, burchlari to'g'risidagi o'ziga xos ta'limotlarni yaratdi.

1.2. Ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari va vazifalari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning ijtimoiy ta'minot olishga bo'lgan huquqlari mustahkamlab va kafolatlab qo'yilgan. Jumladan, Konstitutsiyamizning 39-moddasida shunday deyiladi: «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda va boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam turlarining boshqa turlari rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas³»

Mustaqillik munosabati bilan respublikamizda ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minotning mazmun va mohiyati tubdan o'zgardi. Ijtimoiy himoya davlatimizning ichki siyosatining asosiy tamoyillaridan biri qilib belgilandi, chunki bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tib borar ekanmiz, aholini kam ta'minlangan, muhtoj qatlamini ijtimoiy larzalardan ishonchli tarzda himoyalash va kafolatlash zarur. Aholini davlat himoyasiga muhtoj bo'lgan qatlami ko'p bolali oilalarni, qariyalar, nogironlar, boquvchisidan mahrum bo'lganlarning ahvoli bozor munosabatlarga o'tish davrida narx-navoning oshishi, pulning qadsizlanishi bilan tirikchiligi qiyinlashib qoladi. «Ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari — keksalar, nogironlar, yetim-yesirlar, ko'p bolali oilalar, o'quvchi yoshlarning davlat tomonidan ijtimoiy muhofazaga bo'lgan kafolotli huquqlarini ta'minlashdir⁴». Hozirgi davrdagi asosiy maqsad bo'lib hisoblangan davlatning asosiy vazifasi kishilar boshiga ochlik va muhtojlik tushishiga yo'l qo'ymaslikdir. Har qanday davlat ham o'z aholisini himoya qila olsagina, u insonparvar davlat bo'la oladi.

Kishilarning ijtimoiy himoyalashning va huquqiy kafolotlashning kuchli va ta'sirchan mexanizmi mavjud bo'lgandagina, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab qolish mumkin. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, - T: «O'zbekiston» NMIU, 2013- y.

⁴ Karimov I.A, «O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. - T: O'zbekiston NMIU, 1992-y

I.A.Karimovning «O‘zbekiston — bozor munosabatlarga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li» asarida kuchli ijtimoiy siyosat- iqtisodiy o‘zgartirishlarning ishonchli kafolati ekanligi va bozor iqtisodiyotiga o‘tishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosat o‘tkazish kerakligi ta’kidlangan. Bu shuni anglatadiki, bozor munosabatlarga o‘tish davridagi iqtisodiy tizim islohoti aholining, ayniqsa uning kambag‘al qismini ijtimoiy himoyalash masalasi birinchi o‘ringa qo‘yildi.

Mustaqillikka erishgan vaqtimizdan boshlab, erishilgan ulkan yutuqlarimizdan biri bu bozor munosabatlarning qaror topayotganligi, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan yangicha demokratik tuzum, fuqarolik jamiyati rivojlanib borayotganligidir. Prezidentimiz I.A.Karimov o‘zining bir qancha asarlarida ijtimoiy himoya tizimini yanada yaxshilash va mustahkamlash to‘grisida o‘z yo‘nalishlarini belgilab berdi. O‘tgan davr mobaynida ijtimoiy ta‘minot sohasida ulkan o‘zgarishlar va islohotlar amalga oshirildi. Hukumat qarorlari va Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan «Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalarning miqdorlarini oshirib borish to‘g‘risida»gi farmonlari kuchli ijtimoiy himoya mexanizmining o‘zgaruvchan sharoitga mos bo‘lishi uchun kuchaytirib borish tadbirlarini o‘z ichiga olgan.

O‘zbekiston Respublikasida davlatimizning kuchli ijtimoiy himoya siyosatiga amal qilgan holda, «O‘zbekiston Respublikasi aholisining 2010-yilgacha davrga mo‘ljallangan ijtimoiy himoyasi yagona tizimini yaratish konsepsiyasi »ni ishlab chiqdi.

Bu konsepsiyada davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish uchun yagona yo‘l ishlab chiqish va turli davlat idoralari va jamoat tashkilotlarini kuchlarini birlashtirish lozimligi ta’kidlab o‘tilgan. Unda ijtimoiy himoyaning mavjud usullarini, ularni moliyaviy ta‘minlash manbalarini tubdan o‘zgartirish, bu muammolarni faqat davlat mablag‘lari hisobiga hal qilmay, balki xayriya va jamoat mablag‘larini ham jalb qilish zarurligi kabi qoidalar asosiy o‘rin olgan.

Aholini ijtimoiy himoyalash masalalari ijtimoiy ta‘minot organlari bilan birga Mehnat, Moliya, Sog‘liqni saqlash, Aloqa vazirliklari, Pensiya

Jamg'armasiga hamda jamoat tashkilotlari bo'lgan Ko'zi ojizlar, Kar-soqovlar, Nogironlar, Qizil Yarimoy jamiyatlari, «Mehribonlik», «Bolalar», «Navro'z», «Sog'lom avlod uchun» kabi xayriyajamg'armalariga ham yuklatilgandir. Hozirgi sharoitda aholining ijtimoiy himoya turlari kengayib, uning qo'llanish asoslarini tubdan o'zgartirish talab qilinayotgan bir paytda xizmat ko'rsatilayotgan aholi soni va sarflanayotgan mablag' miqdori jihatidan pensiya ta'minoti aholini ijtimoiy himoyalashda asosiy o'rinni egallaydi.

1993-yil 3-sentabrda Oliy Majlis tomonidan O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinib, 1994-yil 1-iyuldan respublika hududida kuchga kirdi.

Qonunga asosan, faqat ish staji mavjud bo'lgan shaxslargagina pensiyalar tayinlanishi belgilangan. Bu pensiyalar yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalaridir. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov o'zining Oliy Majlisning 1999-yil aprelda so'zlagan nutqida kelgusida ijtimoiy himoyani aniq toifa kishilariga qaratilishini kuchaytirish kerakligi haqida gapirib o'tdi. Bundan shu xulosa kelib chiqadiki, ijtimoiy ta'minot tizimida qo'llanilayotgan hozirgi qonunlarimizni ham qaytadan ishlab chiqish zaruriyati tug'ildi. O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunda belgilangan pensiya yoshi Xalqaro Mehnat Tashkilotining «Nogironlik, qarilik va boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqalar to'g'risida»gi Konvensiyada ko'zda tutilganidan 5 va 10 yil kamdir.

Bundan tashqari ish sharoiti zararli va og'ir bo'lgan xodimlar, teatr, sirk va boshqa tomosha muassasalarining artistlari, aviatsiya, maorif, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, urush nogironlari, ko'p bolali onalar va boshqa ayrim toifaga tegishli fuqarolar yoshga doir pensiyani bundan ham ilgariroq olish huquqiga ega bo'ladilar.

Pensiya haqidagi qonunni ishlab chiqishda pensiya yoshini oshirish, imtiyozli pensiyalar turlarini kamaytirish zarur. Chunki hozirgi belgilangan pensiya yoshidagi kishilar mehnatga layoqatli hisoblanib, yana bir necha yil

bemalol o‘z ishlarini davom ettirishlari mumkin. Pensiyaga chiqqandan keyin ishlayotgan pensionerlar buning yaqqol dalilidir.

Agar pensiya yoshi uzaytirilsa, ayrim imtiyozli pensiyalar qisqartirilsa, sarflanayotgan mablag‘larni tejab qolishga, kelgusi yillarda o‘sib kelishi ehtimoli tug‘ilgan pensionerlarni hamda aholini haqiqatdan ham muhtoj bo‘lgan qatlamini ijtimoiy himoyalashning kuchli va ta’sirchan mexanizmi yaratiladi.

«Aholini ijtimoiy himoyalashning amaldagi mexanizmini tanqidiy baholash va mustahkamlash, uning aniq toifadagi kishilarga qaratilishini kuchaytirish lozim bo‘ladi. Davlat tomonidan aholini ijtimoiy qo‘llab quvvatlash hajmi va miqdorini ko‘paytirish bilan bir vaqtda haqiqatda yordamga muhtoj bo‘lgan kishilar va oilalargina ijtimoiy yordam olishlari mumkin.

Aholini ijtimoiy himoyalash tizimida yolg‘iz qariyalar, pensionerlar va huzuridagi nogironlarning talablari va ehtiyojlariga alohida e‘tibor berish lozim bo‘ladi⁵. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining 1999-yil 13-yanvardagi «Aholini aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta‘minlashda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari rolini oshirish to‘g‘risida»gi farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 1999 -yil 7-dekabdagi «2000- 2005-yillarda yolg‘iz keksalarning, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar Dasturi to‘g‘risida»gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006- yil 7-sentabrdagi 459-sonli qarori bilan tasdiqlangan «2007-2010- yillarda yolg‘iz keksalar va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yanada kuchaytirish choratadbirlari » Dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning pensiya ta‘minoti tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida», 2009-yil 30-dekabrda PF-4161-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabdagi «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining

⁵ Karimov I.A.. «O‘zbekiston-bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li». - T: «O‘zbekiston» NMIU, 1992-y. 49-b.

2010-yil 12-fevralidagi 22- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarining namunaviy Nizomi» yuqoridagi so‘zlarning yorqin dalilidir.

Ushbu farmon va qarorlar aholini ijtimoiy himoya qilishda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini rolini oshirish, ijtimoiy muhofazaning muayyan shaxsga yo‘naltirilganligini ta‘minlashda ularning ma‘suliyatini yanada kuchaytirish maqsadida qabul qilingan.

Aholini muhofaza qilishning aniq shaxsga qaratilishini yaxshilash uchun turar joy muassasalari bolali oilalarga nafaqalar hamda yolg‘iz o‘zgalarda parvarishiga muhtoj pensionerlarni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash masalalarini o‘z zimmasiga olgan bo‘lsa, yolg‘iz keksalarni, pensioner va nogironlarni ijtimoiy ta‘minot va uyjoy- maishiy sharoitlarni yaxshilash yuzasidan ehtiyojlarni qondirish masalalarini hal qilish uchun homiylik mablag‘larini jalb qilish zarurligi belgilandi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab aholini ijtimoiy muhofaza qilishni yanada kuchaytirish, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj nogironlarga hayotda teng imkoniyat va sharoitlar yaratib berish masalasiga alohida ahamiyat berib kelinadi. 1991 yil 18 noyabrda «O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun 2008 yildagi «O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi qonunga muvofiq yangi tahrirda qabul qilindi.

Nogironlar huquqlarini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, yuqoridagi qonun, Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 17 maydagi «Nogironlarni sog‘lomlashtirish va protezlash milliy markazini tashkil etish to‘g‘risida»gi, 2010 yil 23 dekabrda «Nogironlarni tibbiy-ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiya qilish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2011 yil 5 yanvardagi «Aholini ish bilan ta‘minlash va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik

uchun tashkilotlarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar qo'llash, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun tashkilotlar faoliyatini to'xtatib qo'yish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Qonun hujjatlarida nogironlarga turli sohalarda imtiyozlar belgilangan. Jumladan, «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi qonunning 22-moddasiga asosan, nogironlar, shu jumladan, nogiron bolalar va bolalikdan nogironlar tibbiy-ijtimoiy yordam olish, kuch-quvvatni tiklashning barcha turlaridan foydalanish, dori-darmonlar, protez-ortopediya moslamalari, harakatlanish vositalari bilan imtiyozli asoslarda ta'minlanish, shuningdek, kasb-kor egallash va qayta tayyorgarlikdan o'tish huquqiga ega.

Nogironlar davlat sog'liqni saqlash tizimi hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalarida bepul tibbiy-ijtimoiy yordam olish, o'z uylarida parvarish qilinish, o'zganing parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz nogironlar va surunkali ruhiy xastaliklarga chalingan nogironlar esa ijtimoiy ta'minot muassasalarida yashashi qonunlarimizda ko'rsatilgan.

«Shahar yo'lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to'g'risida»gi qonunda 1941-1945 yillardagi urush nogironlari va urushning I guruh nogironiga hamrohlik qiluvchi shaxs, ko'zi ojiz nogironlar va ko'zi ojiz nogironga hamrohlik qiluvchi shaxslarning shahar yo'lovchilar transportidan (taksidan tashqari) bepul foydalanish huquqi kafolatlangan.

Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 2 fevraldagi «Davolash-profilaktika muassasalarini mablag' bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga asosan, bolalikdan nogironlar, I va II guruh nogironlari, 1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek, ularga tenglashtirilgan shaxslar, Chernobil AESidagi halokat oqibatlarini tugatishda qatnashgan nogiron shaxslar turg'un davolash-profilaktika muassasalarida ovqatlanish to'lovidan ozod qilinadi. Shuningdek, mazkur qarorda 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilari va nogironlari hamda ularga tenglashtirilgan

shaxslar, Chernobil AESidagi halokat oqibatlarini tugatishda qatnashgan nogiron shaxslarga ambulatoriyada davolanishda dori-darmonlar tekin berilishi qayd etilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 15 fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan «Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash hamda to'lash tartibi to'g'risidagi nizom»ning 9-bandiga ko'ra, otalardan biri yoki har ikkisi ham nogiron bo'lgan oilalar, nogiron bolasi bo'lgan oilalar bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam olishda ustunlik huquqiga ega. Keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylari sanatoriylarga bepul yo'llanmalar olishi mumkin. Bolalikdan nogironlar, I va II guruh nogironlari, 1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek, ularga tenglashtirilgan shaxslar, Chernobil AESi halokatini tugatishda ishtirok etgan shaxslar jumlasiga kiruvchi nogironlar respublika ixtisoslashtirilgan markazlari tomonidan davlat byudjeti mablag'lari hisobiga tibbiy yordam ko'rsatishda imtiyozlarga ega.

Nogironlar o'zlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular uchun boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida tashkilotlar tuzishlari mumkin. Hozirda Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan va nogironlar sohasida faoliyat olib boruvchi O'zbekiston nogironlar jamiyati, O'zbekiston Milliy parolimpiya assotsiatsiyasi, O'zbekiston nogiron ishbilarmon ayollar milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati, O'zbekiston karlar jamiyati kabi tashkilotlar va ularning hududlardagi bo'limlari faoliyat olib bormoqda.

Mamlakatimizda bunday tashkilotlarning emin-erkin faoliyat yuritishi uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan va ushbu tashkilotlarning olib borayotgan faoliyatlari ham e'tibordan chetda qolmaydi. Jumladan, har yili nogironlarni himoya qilish sohasida faoliyat yurituvchi bir qator nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyatga molik loyihalari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan

moliyalashtirilib kelinmoqda.

Nogironlar va ularning tashkilotlariga soliq sohasida bir qator imtiyozlar belgilab berilgan. Xususan, Soliq kodeksiga asosan urush nogironlari yoxud 1941-1945 yillardagi urush davrida yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarishda yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar jumlasidan bo'lgan boshqa nogironlar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lgan nogironlar, shuningdek, pensiya ta'minoti bo'yicha mazkur toifadagi harbiy xizmatchilarga tenglashtirilgan boshqa nogironlar, bolalikdan nogiron bo'lib qolganlar, shuningdek, I va II guruh nogironlari soliq solishdan qisman (daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha) ozod qilinadi.

1941-1945 yillardagi urush nogironlari, I va II guruh nogironlari mulkida bo'lgan mol-mulk jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni, yer solig'ini, ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan qo'l bilan boshqarishga moslashtirilgan yengil avtomobilni va (yoki) motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'imni to'lamaydi. 1941-1945 yillardagi urush nogironlari notarial harakatlar amalga oshirilganda davlat bojini to'lashdan, qariyalar va nogironlarning internat-uylarida yashovchi qariyalar va nogironlar fuqarolarni turar-joyga qayd etganlik va ro'yxatdan chiqarganlik yoxud turgan joyi bo'yicha hisobga olganlik uchun davlat boji to'lashdan ozodlar.

Nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yer solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i kabi soliqlardan

ozoddirlar.

Nogironlarning jamoat birlashmalari, shuningdek, ularning muassasalari, o'quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari umumiy yurisdiksiya va xo'jalik sudlarida barcha turdagi da'volar bo'yicha hamda notarial harakatlar amalga oshirilganda barcha notarial harakatlar bo'yicha davlat bojini to'lamaydi.

Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 17 maydagi qarori bilan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi huzurida Nogironlarni sog'lomlashtirish va protezlash milliy markazi tashkil qilingan. Hozirda markazda nogironlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

«Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonunning 13-moddasiga binoan, mahalliy davlat hokimiyati organlari nogironlar jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun maxsus jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, sport inshootlari yaratilishini hamda umumiy foydalanishdagi inshootlarda boshqa shart-sharoitlar yaratib berilishini ta'minlaydilar.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda nogironlarga mehnat, oila, fuqarolik munosabatlarida ham ko'plab imtiyozlar yaratib berilgan.

Albatta, nogironlarni har taraflama qo'llab-quvvatlash, ularga hayotda teng imkoniyatlar yaratib berish va huquqiy yordam ko'rsatish jamiyatda ijtimoiy muvozanatni saqlash, ijtimoiy adolat prinsipini qaror toptirishda muhim ahamiyatga ega.

Aholini ijtimoiy himoya qilish siyosati konstitutsiyaviy tamoyillarga asoslangan holda boqimandalik va davlatning yalpisiga ijtimoiy ta'minlashidan aholining ijtimoiy yordamga haqiqatan ham muhtoj bo'lgan real zaif qatlamlarini (pensionerlar, nogironlar, yetim-yesirlar, ko'p bolali oilalar va b.) aniq yo'naltirilgan (manzilli) tarzda qo'llab-quvvatlashga o'tishga asoslangan holda yanada rivojlantirilishi lozim⁶.

⁶ Tursunov Y. Ijtimoiy ta'minot huquqi. (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma). - T: «O'qituvchi» NMIU, 2005- y. B-6.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy siyosatida aholi turmush darajasini yaxshilash muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda aholini kuchli ijtimoiy himoyalash bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyilidan biri sifatida belgilangan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida moddiy jihatdan kam ta'minlangan aholi manfaatlarini ko'zlab, ularni davlat, korxonalar va tashkilotlar o'z zimmasiga oladi. Bu bozor munosabatlari tizimiga o'tish jarayonidagi eng muhim muammolardan biridir. Bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki oqibatlari narx-navoning ko'tarilishi va ishsizlikning oshishidan iborat bo'ldi. Bundan birinchi navbatda aholining kambag'al va iqtisodiy jihatdan zaifroq tabaqalari ko'proq zarar ko'rdi. 90-yilga kelib O'zbekistonda jon boshiga eng past daromad to'g'ri keladigan kishilar soni umumiy aholining 45 foizini, ya'ni 9 millinodan ortiq kishini tashkil etgan edi⁷.

O'zbekiston mustaqillikni e'lon qilgan dastlabki davrdayoq ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishini jahonga ma'lum qildi va aholini ijtimoiy jihatdan har tomonlama qo'llab-quvvatlash tamoyili Prezidentimiz I. A. Karimov strategiyasining asosiy qoidalaridan biriga aylandi.

O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazilishi davr taqozosi edi, desak hatto bo'lmaydi. Chunki respublikamiz Sobiq Ittifoq respublikalari ichida oxirgi o'rinlardan birida edi.


Aholining katta qismi, ayniqsa, qishloq aholisi jamiyatda rasman e'tirof etilgan qashshoqlik darajasida yashardi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1989 yilda jon boshiga hisoblanganda respublikadagi oilalarning 44 foizining pul daromadining rasman belgilangan eng kam ish haqidan ham oz edi.

Bunday sharoitda kuchli ijtimoiy kafolatni vujudga keltirmay turib, o'tkazilgan islohot barbod bo'lishi muqarrar edi. Bozor iqtisodiyotiga ziddiyatlarsiz, silliqqina o'tib bo'lmasligini oldindan ko'ra bilgan Respublika Prezidenti I. A. Karimov: «Jamiyatning sifat jihatdan yangi holatga o'tishida bizga islohot chog'ida odamlar moddiy ahvoli yomonlashadigan, o'tish

⁷ Ergashev T. Bozor iqtisodiyoti. T.: «O'qituvchi», 2002, 111-bet.

davrining barcha qiyinchiliklari aholi yelkasiga tushadigan andoza maqbul emas»⁸, - deb ta'kidlagan edi.

Quyida keltirilgan chizmada aholini ijtimoiy himoya qilishning O'zbekistonda mustaqillik yillarida olib borilgan va yaqin kelajakda ham saqlanib qolajak yo'nalishlari keltirilgan.



Ijtimoiy himoya yo'nalishlarining tarkibiy qismlari⁹

Daromat siyosati haqida gap ketar ekan, avvalambor, totalitar tizim paytida shakllanib qolgan boqimandalikning har qanday ko'rinishlariga barham berish zarurligini ta'kidlab o'tish lozim. Ma'lumki, iqtisodiy tizimda daromadlar bir tekisda taqsimlanib, kishilarni iqtisodiy jihatdan baravarlash tirishga intilish yetakchi o'rinda turardi, boy bo'lish ta'qiqlanardi, daromadlar ma'lum miqdor bilan cheklanardi. Bunday sharoitda xalqimiz «davlat va hukumat, korxonalar va ho'jalik bor ekan, ular hammasini o'ylaydi va bizni kulfatda qoldirmaydi», deb o'z imkoniyatlarini to'la-to'kis ishga solmasdan boqimandalik kayfiyatida yashab keldilar.

Bozor munosabatlari sharoitida olingan daromadlarni taqsimlash tenglikni

⁸ Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T.: «O'zbekiston», 1993, 73-bet.

⁹ Ergashev T. Bozor iqtisodiyoti. T.: «O'qituvchi», 2002, 112-bet.

emas, balki tengsizlikni keltirib chiqaradi. Bu esa o'z navbatida tovar va xizmatlarni yaratishning o'sishi uchun kuchli rag'bat bo'lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlarning yuqori darajasi cheklanmagan bo'lib, ularni har bir insonning mehnat natijalari va sifatiga qarab taqsimlash tizimi hukmronlik qiladi.

Daromatning qobiliyat, bilim, malaka, mahorat va umuman, salohiyatga qarab taqsimlanishidan kelib chiqqan tengsizlik tabiatan adolatli hisoblanadi. Yaxshi ishlagan ishchi yoki xizmatchining ko'p daromad topishi tabiiy, chunki u hayotiy ne'matlarni ko'p va sifatli yaratgani uchun ularni ko'proq o'zlashtirishi kerak.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat turli iste'mol mollari, ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari narxlariga dotatsiyalar o'rnatadi, ya'ni ularni haqiqiy bahosidan kamroq narxlarda sotishni nazarda tutadi. Bunday dotatsiyalar aholining muayyan qatlamlarini emas, balki barcha fuqarolarni ijtimoiy himoyalash maqsadida joriy etilib, davlat byudjetiga anchagina og'ir yuk hisoblanadi. Aholi daromadlari darajasida keskin tabaqalashuvga yo'l qo'ymaslik choralari davlatning diqqat markazida turuvchi masalalardan hisoblanadi¹⁰. Shuni nazarda tutish kerakki, gap adolatsiz daromatlar to'g'risida borayapti. Katta daromad faqat halol va unumli ish natijasi evaziga bo'lishi kerak. Nopok yo'l bilan daromad topuvchilar davlat nazoratida bo'ladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida birmuncha rivojlanib ketgan nopok daromad topish yo'llari bu tizim madaniylashib borgan sari tobora barham topib boradi va adolatli daromadlar salmog'i ortib boradi.

Daromad siyosati sohasida indeksatsiya muhim rol o'ynaydi. Aholi daromadini indeksatsiya qilish deganda, aholi buyumlari va xizmatlarning qimmatlashgan bir qismini yoki to'la qismini qoplash uchun fuqarolarning daromadini oshirish tushuniladi. Indeksatsiya bir yo'la beriladigan ish havi, nafaqa, stipendiya va boshqa turdagi daromadlarning darajalarini qayta ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi. Jahon amaliyotida indeksatsiyaning

¹⁰ Ergashev T, Ismatov R. Iqtisodiy savodxonlik asoslari. T.: «Sharq», 2001, 22-bet.

avtomatik va yarim avtomatik usullari mavjud.

Indeksatsiyaning avtomatik usulida ish haqi baho indeksining o'sish sur'atiga munosib ravishda oshiriladi va aholi daromadining zarar ko'rgan qismi to'la qoplanadi. Ammo bu usul ish haqining samarali tashkil qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki bunda ish haqining oshishi mehnat unumdorligi bilan bog'lanmagan holda amalga oshiriladi¹¹.

Yarim avtomatik usulda bahoning oshishini hisobga olgan holda ish haqini qanchaga oshirish uch tomon (davlat, kasaba uyushmasi va ishlovchilar) ishtirokida shartnoma tuzish yo'li bilan yechiladi.

Indeksatsiyaning amalga oshirishda «iste'mol savatchasi» tarkibini aniqlash zaruriyati tug'iladi. Insonga zarur bo'lgan oziq-ovqat, sanoat mollari va xizmatlarning tirikchilik uchun kifoya qiladigan hajmi «iste'mol savatchasi» deb ataladi.

Aholining shunday qatlamlari borki, ular qanchalik faollik qilmasinlar, o'z daromadlarini oshira olmaydilar. Bular qatoriga nafaqaho'rlar, bolalikdan nogironlar, urush nogironlari, ishsizlar, ko'p bolali oilalar, mehnatda turli baxtsiz hodisalarda mayib bo'lgan fuqarolar kiradi.

Respublika mustaqilligi qo'lga kiritilgan dastlabki kunlardan boshlab hukumatimiz bu toifadagi aholiga alohida e'tibor berib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega»¹², deb ta'kidlanadi.

Nafaqaxo'rlarni ijtimoiy himoyalash maqsadida ularga beriladigan nafaqalar kompensatsiya to'lovlari tarzidagi bevosita pul to'lovlari bilan birga imtiyozlar va turli dotatsiyalar tarzidagi bevosita to'lovlar ham keng qo'llanilmoqda. Masalan, nafaqaxo'rlardan soliq olinmaydi va ijtimoiy ahvoli e'tiborga olinib, ular oladigan nafaqaning mutlaq miqdori ish haqining eng kam

¹¹ Karimov I.A. Milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T.: O'zbekiston, 1996, 41-bet.

¹² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2013, 10-bet.

miqdoridan ortiq bo'lishiga muttasil harakat qilinmoqda.

Respublikamizga nogironlarga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Nogironlar yer yuzidagi jami aholining 7,5 foizini tashkil qiladi. Mamlakatimizda esa bu ko'rsatkich 2,5 foiz atrofida. Ularning har biriga nafaqa va boshqa imtiyozlar bilan bir qatorda o'rtacha 2-3 minimal ish haqi miqdorida yordam berib kelinmoqda.

Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan «nafaqa to'g'risida»gi, «Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi qonunlar ularning haq-huquqlarini qonun yo'li bilan himoya qilishga qaratilgandir. Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish, ularga davlat tomonidan madad berish tizimi muttasil takomillashtirib borilmoqda. 1994 yilning oktabr oyidan boshlab kam ta'minlangan oilalarga davlat nafaqasi joriy etildi. Bu nafaqa eng kam ish haqi miqdorining 1,5 - 3 baravariga tengdir.

Kam ta'minlangan oilalarga ko'rsatiladigan yordamni taqsimlash fuqarolarning mahalliy o'zini-ozini boshqarish organlari - mahallalar zimmasiga yuklatilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda istiqomat qiluvchi oilalarning 10-12 foizi nafaqa olmoqda.

Shunday qilib, mamlakatimizda ijtimoiy himoyalashning noyob tizimi shakllandi va amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ijtimoiy himoyaning quyidagi yo'nalishlari ustivor hisoblanadi:

_ islohotlarning birinchi bosqichida sog'liqni saqlash, maorif va madaniyat sohasida yaratilgan tizimni yanada rivojlantirish;

_ davlat tomonidan sog'liqni saqlash muassasalarini dori-darmonlar, vaksinalar va boshqa tibbiy ashyolar bilan ta'minlash, kasallanish, o'lim va bolalar o'limi ko'payishining oldini olish;

_ ijtimoiy sohani davlat tomonidan pul bilan ta'minlashning kamayishiga yo'l qo'ymaslik, uni byudjetdan tashqari mablag'lar bilan ta'minlashning bozor mexanizmini yaratish;

_ maorif va sog'liqni saqlash tizimida bozor o'zgarishlarini jadallashtirish va xodimlarning o'z mehnati natijalaridan moddiy manfaatdorligini yuksaltirish choralarini amalga oshirish.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ijtimoiy soha - sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at, shuningdek, ilmfan, ayniqsa, mushkul ahvolga tushib qoladi. Shu sababli mamlakatimizda aynan shu sohalarni ustivor darajada rivojlantirish, ularda ishlovchilarning mehnatiga munosib baho berish va ularni kuchli ijtimoiy himoyalash siyosati amalga oshirilmoqda.

O'tgan 22 yillik mustaqil taraqqiyotimiz davomida mamlakatimiz erishayotgan natija va marralar haqidagi ko'rsatkichlar yurtimizda bo'layotgan mislsiz o'zgarishlar to'g'risida aniq tasavvur beradi.

Ana shu davrda O'zbekiston iqtisodiyoti 4,1 barobar o'sdi. Agarki mamlakatimiz aholisi ayni shu davrda qariyb 9,7 millionga ko'payib, bugungi kunda 30 million 500 mingga yaqin kishini tashkil etayotganini hisobga oladigan bo'lsak, axoli jon boshiga nisbatan o'sish 3 barobardan ziyodni tashkil etishi bizning naqadar ulkan taraqqiyot yo'lini bosib o'tganimizdan dalolat beradi.

Jahon miqyosida hali-beri davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning jiddiy ta'siriga qaramasdan, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining yillik o'sishi 2008-2013 yillarda 8 foizdan oshdi, 2014 yilda esa bu ko'rsatkich 8,1 foizni tashkil etadi. Bunday o'sish sur'atlarini kamdan-kam davlatlarda kuzatish mumkin.

O'tgan davr mobaynida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mutanosibligi, davlat byudjetimizning profitsit bilan, ya'ni oshirib bajarilishi ta'minlanmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda axolining real yalpi daromadlari jon boshiga 8,2 barobar oshganining o'zi xalqimizning hayot darajasi tobora o'sib borayotganidan dalolat beradi. O'zbekistonning tashqi davlat qarzi yalpi ichki maxsulotga nisbatan 16 foizdan oshmayapti, eksport va oltin-valyuta zaxiralarimiz hajmi ko'payib bormoqda.

Istiqlol yillarida mamlakatimiz iqtisodiyotida dollar hisobida 162 milliarddan ortiq kapital mablag' o'zlashtirilgan bo'lib, buning 56 milliard dollardan ziyodi xorijiy investitsiyalardir.

Faq'atgina 2013 yilning o'zida kapital investitsiyalar hajmi dollar hisobida qariyb 14 milliardni yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 23 foizni tashkil etadi.

Bularning barchasi avvalo iqtisodiyotimizdagi ijobiy tarkibiy o'zgarishlar natijasi, yangitdan ishga tushirilgan, jahon bozorida talab katta bo'lgan raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarayotgan yuzlab, minglab zamonaviy korxonalar demakdir.

Bu raqamlar avvalo yuzlab, minglab kilometr temir yo'llar va avtomobil' yo'llari, yuz minglab uy-joylar qurilgani, infratuzilma ob'ektlari bunyod etilgani, shahar va qishloqlarimiz qiyofasining tubdan o'zgarib, aholi farovonligi va hayot sifati oshib borayotganining dalilidir.

Bugun bir fikrni hech ikkilanmasdan, to'la ishonch bilan aytishimiz mumkin: O'zbekiston tarixan qisqa muddatda iqtisodiyoti biryoqlama rivojlangan, asosan paxta xomashyosi etkazib berishga moslashgan, paxta yakkahokimligi halokatli tus olgan qoloq respublikadan tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan zamonaviy sanoat tarmoqiga ega bo'lgan, jadal taraqqiy etayotgan mamlakatga aylandi. Buning yaqqol tasdg'i - mamlakatimizning yalpi ichki mahsuloti tarkibida sanoatning ulushi 1990 yildagi 14,2 foiz o'rniga bugungi kunda 24,3 foizni tashkil etgani, ayni paytda qishloq xo'jaligining ulushi esa 34 foizdan 17 foizga kamayganidir¹³.

Ijtimoiy siyosat - bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatishga va bozor iqtisodiyoti qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosatdir.

Respublikada bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy siyosat aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratiladi hamda alohida yirik yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Bu yo'nalishlar O'zbekiston Respublikasi

¹³ Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizning yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini qurish – yorug' kelajigimizning asosiy omilidir //Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi //Xalq so'zi, 2013 yil 7 dekabr

birinchi prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida"¹⁴ kitobida to'liq bayon qilib berilgan.

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo'nalish - bu narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi. Bunda respublikaning o'ziga xos yondashuvi ishlab chiqilib, daromadlar nisbatini o'zgartirish, ishhaqi, pensiyalar, stipendiyalarning, jamg'arma banklardagi aholi omonatlari stavkalarining eng oz miqdorini bir vaqtning o'zida qayta ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi. Daromadlar nisbatini o'zgartirishda 1993 yil joriy etilgan yangi yagona ta'rif setkasi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu barcha toifadagi xodimlarning mehnathaqi miqdorlarini tarif koeffitsientlari orqali, eng kam ishhaqi vositasi bilan bevosita o'zaro bog'lash imkonini berdi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning ikkinchi yo'nalishi - ichki iste'mol bozorini himoya qilish, hamda oziq-ovqat mahsulotlari va oziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish bo'ldi. Bunga erishishda muhimi mahsulotlar eksportini bojxona tizimi orqali nazorat qilish va ularga yuqori boj to'lovlari joriy etish, kundalik zarur tovarlarni me'yorlangan tarzda sotishni tashkil qilish kabi tadbirlar katta ahamiyatga ega bo'ldi. Milliy valyuta joriy etilishi bilan oziq-ovqat mahsulotlarini me'yorlangan tarzda sotishdan voz kechish erkin narxlarga o'tish imkoniyatini yaratadi.

Iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning uchinchi yo'nalishi aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash borasida kuchli chora-tadbirlar o'tkazilganligi bo'ldi. Bu yo'nalishda aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar hamda qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilar turli xil yo'llar bilan himoya qilib borildi.

Yalpi ijtimoiy himoyalash tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va

¹⁴Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.:O'zbekiston, 1995, 119-138-betlar.

aholini ijtimoiy qo`llab-quvvatlash tizimiga izchillik bilan o`tish ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga, ijtimoiy himoya vositasini kuchaytirishda sifat jihatdan yangi bosqich boshlashini bildiradi.

Yangilangan ijtimoiy siyosat adolat tamoyillariga izchillik bilan rioya qilishga asoslanib, ijtimoiy ko`maklashishning mavjud usullarini va pul bilan ta`minlash manbalarini tubdan o`zgartirishni taqozo qiladi. Bu siyosat ijtimoiy himoya aniq maqsadiva aholining aniq tabaqalarini qamrab olishni ko`zda tutadi. Yordam tizimi faqat kam ta`minlangan va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nisbatan qo`llanilib, shu maqsad uchun davlat manbalari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, turli tashkilot hamda jamg`armalarning mablag`laridan ham foydalaniladi.

Ijtimoiy ko`maklashishning yangi tizimida bolalar va kam daromadli oilalar yordamdan bahramand bo`luvchi asosiy kishilar hisoblanib, ular uchun hamma nafaqa va moddiy yordamlar faqat mahalla orqali yetkazib beriladi. Bu tizimda kam daromadli oilalarga beriladigan moddiy yordam mahalla orqali yetkaziladi. Shu maqsadda mahallalarda byudjet mablag`lari, korxonalar va tashkilotlar, tadbirkorlik tuzilmalari va ayrim fuqarolarning ixtiyoriy o`tkazgan mablag`lari hisobidan maxsus jamg`armalar hosil qilindi.

Ijtimoiy ko`maklashishning yangi tizimi mehnatgarag`batlantiradigan omillar va vositalar yangi tuzilmasi paydo bo`lishini ham taqozo qiladi.

Shunday qilib, islohotlar davrida davlat aholining muhtoj tabaqalarini qo`llab-quvvatlash bilan birga, o`z mehnat faoliyati orqali oilasining farovonligini ta`minlashga intiluvchi kishilar uchun teng sharoit va qulay imkoniyat yaratishga harakat qiladi.

Bu borada O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining shunday fikrlari mavjud: "Bozor iqtisodiyotiga o'tish birinchi navbatda hayotimizda, iqtisodiyotimizda barqarorlikka erishishga chambarchas bog'langan. Shuning uchun ham iqtisodiyotimizning moliyaviy ahvolini barqarorlashtirish iqtisodiy islohotlarimizni amalga oshirishning muhim shartidir. Iqtisodiyot barqaror ishlagandagina bozor munosabatlariga muvoffaqiyatli o'tish mumkin.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish - bozorni shakllantirish yo'lidagi qonuniy va muqarrar bosqichdir. Biz iqtisodiyotni barqarorlashtira borib, bozor munosabatlarini normal rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltiramiz. Islohotlar barqarorlikning g'oyat muhim sharti bo'lmish - aholini ijtimoiy himoya qilish, haqiqatdan ham asosiy, uzluksiz, ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bozor islohotlarining hamma bosqichlarida oldindan o'tkaziladigan kuchli ijtimoiy siyosat O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining yetakchi prinsiplaridan biridir. Bozor iqtisodiyotini barpo etish shunchaki bir maqsad emas. Barcha iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning pirovard maqsadlari bu eng avvalo inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratishdir. Shunday qilib biz komil ishonch bilan ayta olamizki mustaqillik yillari mobaynida biz yangi jamiyat asoslarini yaratishga o'zgarishlar muqarrarligining negizini ta'minlashga muvaffaq bo'ldik.”¹⁵

Ijtimoiy sohani asosiy maqsadi bo'lib, aholining turmush darajasini oshirish hisoblanadi.

Ijtimoiy siyosat deganda muayyan davlat hokimiyatining ushbu soha bo'yicha o'z oldiga qo'ygan vazifalarini va maqsadlarini amalga oshirish bilan bogliq siyosat turi tushuniladi. Bu siyosat bevosita aholining turmush darajasini oshirish bilan bog'liq siyosat bo'lib unga:

-daromad siyosati;

-ijtimoiy ta'minot va mehnat bozorini shakllantirish;

-aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish sifatini yaxshilash kabi ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat turlari kiradi.

Ijtimoiy siyosatning ob'ekti bo'lib ijtimoiy soha hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi dastlabki kundayoq ijtimoiy masalalarni qamrab oluvchi bozor iqtisodiyotini qurishni maqsad qilib oldi. O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazilishi davr taqazosi edi, desak xato bo'lmaydi. Chunki:

¹⁵O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil xarakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish-asosiy vazifamizdir» ma'ruzasi. – «Xalq so'zi», 2007 yil, 13 fevral.

-Sobiq ittifoqning qator respublikalaridan farqli o'laroq, O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni ijtimoiy sharoiti og'ir, turmush darajasi ko'rsatkichlari past bo'lgan bir vaqtda boshlashiga to'g'ri keldi:

-Respublikada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real pul daromadlari, o'rtacha ish haqi eng muhim oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish va nooziq ovqat tovarlari hamda xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi jihatdan oxirgi o'rinlarda edi;

-1990 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari, aholiga tovarlarni realizatsiya qilish va xizmatlar ko'rsatish hajmi bo'yicha respublika ko'rsatkichlari Sobiq ittifoq ko'rsatkichlarining 55-60 foizidan oshmas edi;

-aholining katta qismi, ayniqsa qishloq aholisi jamiyatda rasman e'lon qilingan qashshoqlikda yashardi. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 1989 yilda jon boshiga hisoblanganda respublikalardagi oilalarning (respublikamizdagi) 44 foizining pul daromadi rasmiy belgilangan eng kam ish haqidan ham oz bo'lgan;


Yuqorida aytib o'tganimizdek, O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat olib borilishi lozim, lekin qanday qilib? Bu yerda eng muhim va zamonaviy muammolardan biri masalaning javobini tashkil qiladi. Ya'ni, **eng avvalo kam ta'minlangan tabaqaga yordam berish haqida davlat samarali siyosatni ishlab chiqishi lozim va bunga bog'liq holda kam ta'minlanganlik va kambag'allik tushunchalarini ta'riflab berish shart deb o'ylaymiz.**

Aholiga xizmat ko'rsatadigan ijtimoiy soha-bu milliy iqtisodiyotning har xil tarmoqlarining yig'indisidir. Buning asosiy funksiyasi, aholi uchun kerak bo'lgan xizmatlarni yaratishdir. Ijtimoiy soha tarmoqlariga quydagilar kiradi: chakana savdo, maorif, tibbiyot, uy-joy komunal xo'jaligi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'i, jismoniy tarbiya va sport, madaniyat va san'at, atrof muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy taminot va boshqalar.

Yuqorida ko'rsatilgan sohalar aholining qandaydir ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlardir. Xizmatlarning hammasini ikkita yirik guruhga bo'lish mumkin:

- 1). Moddiy xizmatlar;
- 2). Ijtimoiy va ma'naviy xizmatlar.

Moddiy xizmatlar ishlab chiqarish tarmoqlarida yaratilgan mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berish bilan, ularni saqlash bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar. Masalan, savdo xizmatlari, aholiga maishiy xizmat ko'rsatishning ayrim turlari. Ijtimoiy va ma'naviy xizmatlarga sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat muassasalarining xizmatlari, jismoniy tarbiya va sport, adabiyot, teatr, kino, muzeylar va boshqa tarmoqlarning xizmatlari va boshqalar kiradi. (1 - chizma)



1-chizma.

Aholining turmush darajasini belgilash uchun birinchi navbatda aholining jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlarini aniqlab chiqishimiz kerak. Statistika ma'lumotlari bo'yicha aholining haqiqiy daromadlari o'sdi, tadbirkorlik, shaxsiy yordamchi xo'jalik va xususiy mulkdan keladigan daromadlar ulushi o'sishi davom etmoqda. Aholining pul daromadlari va iste'mol xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagilar: 2013-yil yakunlari bo'yicha yalpi ichki mahsulotning o'sishi 8 foizni, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmlari — 8,8 foizni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi — 6,8 foizni tashkil etdi, qurilish ishlari hajmi — 16,6 foizga, xizmatlar xajmi — 13,5 foizga, chakana tovar aylanmasi — 14,8 foizga o'sdi. Davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz miqdorida profitsit bilan ijro

etildi. Inflyatsiya darajasi prognoz parametrlaridan oshmadi va 6,8 foizni tashkil etdi.

Keltirilgan raqamlar respublika hududlarini rivojlanishi, aholini zich yashashi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va qaysi ijtimoiy muammolar dolzarbligini ko'rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlar O'zbekistonda oxirgi davrda ancha yuqori sur'atlar bilan rivojlangandir.

Ijtimoiy tarmoqlarning asosiy roli va vazifasi (2-chizma).



2-chizma.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimi quyidagi masalalarni yechish bilan bog'liqdir: sanoatda rivojlantirishni barqarorlashtirish va yuksaltirish; turli manbalardan pul mablag'larini (kichik biznesni rivojlantirish

uchun) jalb etish (sanoat sektoriga); daromadlar va turmush saviyasidagi farqliklarni kamaytirish; kambag'allikka qarshi kurash. Bu borada yana bir xususiyat borki bu bozor infratuzilmasini shakllantirish, bank, moliya va sug'urta tizimlarini qayta shakllantirish (tashkil etish), bilimdon **va zamonaviy fikrlaydigan mutaxassislarni tarbiyalash bo'yicha hali juda ko'p ishlar qilinishi kerak.**

Respublikamizda islohotlarning dastlabki bosqichidan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish chog'ida aholiga ijtimoiy kafolotlar yaratib qo'yildi. Fuqarolarning mulkdan ulush olishida tenglik tamoyillariga, shuningdek xususiylashtirilayotgan korxonalar mehnat jamoasi a'zolarining ijtimoiy himoya qilinishiga qat'iy rioya etildi.

Imtiyozlarning bugun bir tizimli ishlab ularga yordam berish xususiylashtirgandan keyin ularga yordam berish maqsadida soliq sohasida ham imtiyozlarning ayrim turlari belgilandi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy kafolotlar tizimi xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish uchun ham imkoni boricha ko'proq qulay sharoit yaratish lozim. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror va dinamik rivojlanishi tufayli aholi hayot darajasi va sifatining izchil o'sishi ta'minlanmoqda. 2013-yilda byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdori 20,8 foizga, aholining real daromadlari esa — 16 foizga o'sdi. Narx-navoga erk berilishi va inflyatsiya darajasi munosabati bilan ijtimoiy muhofaza chora-tartiblari tizimlarida daromadlarni muntazam oshib borishi eng muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbekistonda daromadlarni indeksiyalash jarayoni ish haqining eng oz miqdorini, pensiyalar, stipendiyalarni, aholining jamg'arma banklaridagi omonatlari bo'yicha stavkalarni bir yo'la markazlashtirilgan tarzda qayta ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshirilmoqda. Aholining nochor tabaqalarini-pensionerlar, ishsizlar, o'quvchi yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish va qo'llab-quvvatlash sohasida kuchli chora-tadbirlar o'tkazilishi faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning g'oyat muhim yo'nalishidir.

O'zbekistonning siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka erishish, milliy davlatchiligimizni barpo etish, buning uchun mustahkam moddiy negiz yaratish manfaatlarini ko'zlab quyidagilar milliy iqtisodiyotni isloh ustuvorlari qilib belgilandi:

- Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, qudratli va tinimsiz rivojlanib boradigan milliy boylikning ortishini, kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart sharoitlarni ta'minlaydigan iqtisodiy tizimni barpo etish;

- Korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo'jalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvidan voz kechish, iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy buyruqbozlik usullarini bartaraf etish, iqtisodiy omillar va rag'batlantirish vositalaridan keng foydalanish;

- Iqtisodiyotda moddiy, tibbiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan chuqur tarkibiy o'zgarishlar qilish, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilib borish;

- Kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini sarflash va shakllarini mustaqil belgilash imkonini beradi va boshqalar.

Hisobot davrida aholining pul daromadlari o'sdi. Oilalar umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy yordamchi xo'jaliklar va tadbirkorlikdan olingan daromadlar xissasi ortdi. 2013-yil aholi pul daromadlari ortishi iste'mol mollari xarid qobiliyati ortganligidan dalolatdir. Ijtimoiy sohada milliy iqtisodiyotda band bo'lgan xodimlarning 11 foizdan ko'prog'i savdo-sotiq va umumiy ovqatlanish sohasida mehnat qiladi. 45 mingga yaqin davlat va nodavlat chakana savdo korxonalarini aholiga xizmat ko'rsatadi. Ijtimoiy-madaniy kompleks tarmoqlariga jalb etilgan mehnat resurslari quyidagi xususiyatlarga ega:

- xizmat tarmoqlarga jalb etilganlar;

- ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan.

Ushbu yangi qiymat yaratadigan xizmatlar ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'ladi. Bularga misol, maishiy xizmat tarmog'i kiyim kechaklarni tikish, uylarni

qurish, iste'molchini buyurtmasi bo'yicha tovar va mahsulotlarini iste'molchiga yetkazib berish va boshqa xizmatlar kiradi. Noishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan xizmatlarga yangi yoki qo'shimcha qiymat yaratadigan xizmatlar kiradi. Masalan, sartaoshlik xizmatlari, madaniyat va san'at muassasalari xizmatlari va hokazolar.


Ikkinchidan, ijtimoiy soha tarmoqlari muassasalarining asosiy qismida ko'pincha ishlab chiqarishning jonli mehnat usuli qo'llaniladi. Shuning uchun noishlab chiqarish sohalarida muassasalarni kengayishi asosan ishlaydiganlar sonini ko'payishi bo'yicha olib boriladi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy soha tarmoqlarida ham ishlaydiganlarning sonini uncha-muncha qisqartirish uchun, boshqaruv organlarini va boshqaruv sistemasini avtomatlashtirish bilan ishlaydiganlarning sonini qisqartirish mumkin.

Uchinchidan, ijtimoiy soha tarmoqlarida ishlaydigan mutaxassislar malakali mutaxassislar bo'lib, oliy yoki o'rta maxsus ta'limga egadirlar. Masalan: tibbiyot sohalarida, maorif sohasida, madaniyat va sa'nat sohasida. Shuning uchun ta'lim darajasi bo'yicha ijtimoiy soha tarmoqlarida band bo'lgan mutahassislar umuman milliy iqtisodiyotda band bo'lgan mutahassislarga nisbatan yuqoriroq. Ijtimoiy soha tarmoqlarida mehnatni rejalashtirishda bir necha ko'rsatkichlardan foydalanamiz:

1. Tarmoqda ishlaydiganlar soni;
2. Ijtimoiy sohada bitta ishlaydiganga to'g'ri keladigan Milliy daromad hajmi;
3. Ijtimoiy sohaning ayrim tarmoqlarida mehnat unumdorligi; Masalan, savdoda bitta sotuvchiga to'g'ri keladigan tovar oborotini hajmi, madaniy xizmatda bitta ishlaydiganlarga to'g'ri keladigan, pullik xizmatlarni hajmi.

Bundan tashqari ijtimoiy soha tarmoqlarida sonli ko'rsatkichlar bilan bir qatorda sifat ko'rsatkichlari ham qo'llaniladi. Masalan, tibbiyotda bemorni davolash sifati. Ta'limda ishlaydigan o'quvchilar malakasi va ta'lim sifati va hokazo.

Umuman, **Ijtimoiy soha tarmoqlaridagi mehnatning samaradorligiga quyidagilar o'z ta'sirini ko'rsatadi (3-chizma):**



3-chizma

Bozor munosabatlarini rivojlantirish bilan xususiy mulkning roli tobora oshib bormoqda. Asosiy fondlar qiymat shakli asosan asosiy fondlarning strukturasi hisob-kitoblarda qo'llaniladi. Masalan, hozirgi davrda noishlab chiqarish sohaning asosiy fondlarda uy-joy kommunal xo'jaligini asosiy fondlari 30 foizni tashkil etadi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarining asosiy fondlari 11 foizni, maorif va tibbiyotni 16 foiz fan, madaniyat va boshqa tarmoqlarning asosiy fondlari 11 foizni tashkil etadi. Asosiy fondlarni ishlatish jarayonida ularni jismoniy tomondan eskirishi va fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirish natijasida ma'naviy eskirishni beradi. Noishlab chiqarish sohasidagi asosiy fondlar uchun jismoniy tomondan eskirishi ko'proq darajada bo'ladi. Asosiy fondlarning tiklanishi asosan ikkita yo'nalish bo'yicha olib boriladi.

Kapital va joriy remont orqali. Joriy remont ko'pincha korxonalar va muassasalarning hisobiga o'tkaziladi, kapital remont esa qisman byudjet mablag'lari hisobiga o'tkaziladi. Asosiy fondlarni qurish uchun kerak bo'lgan kapital mablag'larning manbaalari quyidagilar: davlat byudjeti; davlat krediti; ijtimoiy sohalarning foydasi; aholi daromadlari va xorijiy investitsiyalardir.

2.2. Ijtimoiy sohalarni rivojlantirish – O'zbekiston ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida .

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotda bir necha kamchiliklar paydo bo'ladi. Mana shu kamchiliklar va iqtisodiyotdagi salbiy jarayonlarni yo'qotish uchun davlat iqtisodiyotga aralashadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotni boshqarishda davlatning roli quyidagilardan iborat:

- Davlat milliy iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini, sohalarni iqtisodiy jarayonlarni rejali tartibga soladi. Masalan: ishsizlik bilan kurashish dasturlari, qishloq xo'jaligini rivojlantirish dasturlari va hokazolar;

- Davlat iqtisodiyotini rivojlantirishning huquqiy norma va qonunlarini ishlab chiqadi. Masalan: O'zbekistonda antimonopol qonun, bankrotlik to'g'risidagi qonun va hokazolar;

- Davlat milliy iqtisodiyotni boshqarishda har xil ma'muriy chora tadbirlardan foydalandi;

- ijtimoiy sohani boshqarishda ham davlatning roli juda ham katta, u bir qator ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajaradi;

- bozor tizimi samarali rivojlanishi uchun, ijtimoiy adolatni rivojlantirish uchun davlat qonuniy asosni ta'minlaydi;

- mamlakatda yashaydigan fuqorolarning iqtisodiy erkin kurashi va erkin raqobatini himoya qiladi;

- milliy daromad va milliy boylikni ijtimoiy adolatlilik asosida yaratilgan milliy daromadni qayta taqsimlaydi;

- inflyatsiya, ishsizlik jarayonlari ustidan nazorat qilish asosida iqtisodiyotni barqarorlashtirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi;

- aholini bozor iqtisodiyotining salbiy natijalaridan himoya qilish uchun ijtimoiy mexanizmni takomillashtirish.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida ijtimoiy sohalarda davlatning roli har xil. Davlatning ko'p sonli funksiyalari ichidan eng asosiylaridan biri-davlatning ijtimoiy siyosat funksiyasidir. Davlatning ijtimoiy

siyosati deganda, biz aholining ijtimoiy himoya qilish tizimini bajarish uchun aholini barqaror va yuqori turmush darajasini yaratish uchun davlat tomonidan olib boriladigan chora-tadbirlarning yig'indisini tushunamiz. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, davlatning ijtimoiy siyosati har xil davrlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan va shu siyosatning natijalari ham har xil bo'lgan. Lekin ijtimoiy siyosatning xususiyatlariga qaramasdan biz eng asosiy belgilovchi yo'nalishlarni ajratishimiz mumkin. Bu quyidagilar bilan bog'liq:

1. Moddiy va ma'naviy boyliklarning taqsimlanishi shu maqsadda olib borilishi kerak, u jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlasin.

2. Demografik siyosatni shunday olib borish kerakki, natijada mehnat resurslaridan ratsional foydalanish mumkin bo'lsin.

3. Jamiyatning ratsional (unumli) ijtimoiy tarkibini tuzish uchun davlatning ijtimoiy yo'nalishining asosiy vazifasi bo'lib har xil manbalar orqali aholi daromadlarini tashkil etish hisoblanadi.

Ular quyidagi yo'nalishlar orqali tashkil etiladi:

-mehnatga to'lovlar orqali:

-ijtimoiy iste'mol fondlar orqali:

-shaxsiy mulkchilik orqali:

-korxonalarining daromadlari orqali:

Aholi daromadlarining bir qismi mehnat sifati bilan bog'liq bo'lsa, yana bir qismi mehnat sifatiga bog'liq bo'lmaydi.

Respublikada aholini ijtimoiy himoyalash asosan uch yo'nalishda amalga oshiriladi.

Birinchi, narxlarning erkinlashtirilishi va ularning qadrsizlanishi darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasi muntazam oshib borildi. Bu soha 1993 yil yanvarda joriy etilgan yangi yagona tarif stavkasi barcha xodimlarning mehnat haqi miqdorini tarif koeffitsientlari orqali eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita o'zaro bog'lash imkonini berdi. Ya'ni eng kam ish haqini oshirish yo'li bilan aholining o'rtacha ish haqini oshirish yo'li bilan aholining o'rtacha ish haqi, pul daromadlari ham o'z-o'zidan

ko'tarila boradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 15-dekabrda amal qilib boshlagan qaroriga muvofiq, ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdorini oshirish 0,05 barobar ko'paytirildi. Albatta bu aholi barcha tabaqalarini pul daromadlarining ko'payishini taminlaydi va har yil oshiriladi. Joriy 2014 yilda eng kam ish haqi - 96105so'm (qariyb 34 AQSH dollar)ni tashkil qiladi¹⁶.

Ikkinchisi, respublikani ichki iste'mol bozorini himoya qilish va aholining oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining muayyan darajasini saqlab turish.

Uchinchidan, aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy jihatdan qo'llab quvvatlash chora-tadbirlari ko'rildi. 1994 yilda aholini ijtimoiy himoya qilishning tenglashtirish tizimidan aniq maqsadli va aholining muxtoj tabaqalarini qamrab oladigan tizimga o'tildi, ya'ni «mahalla» jamiyati orqali bolalar va kam daromadli oilalarga moddiy yordam ko'rsatiladigan bo'ldi. Bunday aholini ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi islohotlar birinchi bosqichning ijtimoiy himoyalash sohasidagi muhim yakuni bo'ldi. Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida yalpi ijtimoiy kafolatlar va aholining nochor va muhtoj qatlamlarini kuchliroq qo'llab-quvvatlash tizimi zarur bo'lib qoldi va yangidan ijtimoiy siyosat qurilishiga asos qilib olindi. (1994-1997 yillar). Uchunchi bosqichning (1997 yildan hozirgacha) asosiy maqsadi - bu iqtisodiy o'sish, aholini yashash darajasini oshirish va manzilli ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishdir. Ijtimoiy himoya qilishning samarali tizimi zamonaviy iqtisodiyotga xos xususiyat hisoblanadi. U har bir kishining ijtimoiy- iqtisodiy maqomidan qat'iy nazar, mehnat imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish va ayni vaqtda jamiyatdagi barqaror holatni kafolatlash imkonini beradi, «inson salohiyati»ni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi.

Hozirgi sharoitda inson salohiyatidan samarali foydalanishga hamda jamiyatda ijtimoiy tanglik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikka aynan shunday erishish mumkin. Bunday muhofaza ta'minlanmas ekan, kishilarning qayta o'qitish, yangilikni o'zlashtirish, ijod qilish kabi mehnat imkoniyatlaridan

¹⁶Norma.uz .

foydalanish mumkin bo'lmay qoladi. Samarali ijtimoiy himoya tizimining mavjudligi malakali xodim mehnatiga asoslanuvchi zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish «aholini ijtimoiy himoya qilish» tushunchasining kiritilishini qat'iy talab etadi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish - davlatning aholiga normal hayot faoliyati uchun beradigan shart-sharoitlarini ta'minlaydigan bevosita maqsadli kafolatlar tizimidir.

Boshqacha aytganda, ijtimoiy himoya tizimi bozor tizimi samaradorligining tor tasavvurlaridan emas, balki haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash masalalarini hal qilish maqsadidan kelib chiqib tashkil etilishi kerak. SHu bilan birga, ijtimoiy himoyaning har safar, o'zi amal qilib turgan ishlab chiqarish munosabatlari tizimi tomonidan, jahon iqtisodiyotining hozirgi holati imkoniyatlaridan keng foydalanadi va hozirgi zamon talablari asosida rivojlanib boradi.

Ijtimoiy himoyaning «Iqtisodiyot inson uchun» tarzida bo'lishi lozim bo'lgan zamonaviy iqtisodiyotga o'tishi uchun shunday samarali tizim zarurki, u har bir kishining mehnat salohiyatidan, uning ijtimoiy-iqtisodiy maqomi, qaysi ijtimoiy-iqtisodiy guruhga mansubligidan qat'iy nazar, undan foydalanish imkonini bersin. Faqat mana shundagina inson salohiyatidan samarali foydalanishga hamda «ertangi kunga ishonch» bo'lishiga erishish mumkin bo'ladi. Bunday muhofaza ta'minlanmas ekan, qayta tayyorlash, yangilikni o'zlashtirish, ijodiy ishlash qobiliyatiga ega bo'lish kerak bo'lgan malakali ishchi kuchidan foydalanishning imkoni bo'lmaydi yoki ancha chegaralanadi. Boshqacha aytganda, samarali ijtimoiy himoya tizimining mavjudligi malakali xodim mehnatiga asoslanadigan zamonaviy iqtisodiyotning tarkibiy hususiyati hisoblanadi..

Samarali ijtimoiy himoyalanish deganda, jamiyatning har bir a'zosiga ma'lum turmush darajasini, o'z qobiliyatini (mehnat, tadbirkorlik, shaxsiy)

rivojlantirish va ulardan foydalanish, u yoki bo' qobiliyatlar yo'qotilgan taqdirda (keksalar, nogironlar, kasallar, bolalar va boshqalar) kafolatlarni ta'minlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimi tushuniladi.

Ijtimoiy himoya mazmunini aniqlashga bunday yondoshilganda quyidagi kafolatlar ijtimoiy himoyaning tarkibiy qismlariga aylanadi:

- mehnatga layoqatlilar uchun ish (ishsizlikdan muhofaza qilish);
- mehnatga layoqatsiz bo'lib qolganlar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy zaif guruhlarini nafaqalar bilan ta'minlash;
- mehnat faoliyatidan olingan daromad yoki nafaqa asosida normal turmush darajasini ta'minlash (bunga asosiy moddiy boyliklar, eng avvalo, oziq-ovqat mahsuloti iste'moli ham kiritiladi);
- turar joy, madaniy va sog'liqni saqlash xizmatlarini minimal teng me'yorda ta'minlash;
- zamonaviy malakali ishchi kuchini shakllantirish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotni olish

Shu bilan birga O'zbekistonda davlat:

- ish bilan ta'minlash turini, shu jumladan, turli mehnat rejimidagi ishni tanlash erkinligini;
- ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etishdan va mehnat shartnomasini g'ayriqonuniy ravishda bekor qilishdan muhofazalanishni;
- maqbul keladigan ish tanlash va ishga joylashishga bepul yordam berishni;
- har kimga kasbga va ishga ega bo'lishda, mehnat qilish va ish bilan ta'minlash shart-sharoitlarida, mehnat haqi olishda, xizmat pog'onasidan yuqorilab borishda teng imkoniyatlar yaratishni;
- yangi kasbga (mutaxassislikka) bepul o'qitishni, mahalliy mehnat organlarida yoki ularning yo'llanmasi bilan boshqa o'quv yurtlarida stipendiya to'lab malakasini oshirishni;
- boshqa joydagi ishga qabul qilinganda moddiy xarajatlar uchun qonun hujjatlariga muvofiq kompensatsiya to'lashni;

- haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish uchun muddatli mehnat shartnomalari tuzish imkoniyatini kafolatlaydi.

Ish bilan ta'minlashning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy shartlari hamda mehnat qilish huquqini amalga oshirishning kafolatlari mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilab qo'yiladi.

Ikkinchidan, jamiyat davlat organlari tizimi va boshqa ijtimoiy tuzilmalar orqali ish kuni, ish haftasi, ish yili tartibini, yuqori mehnat samaradorligi bilan uzoq muddatli mehnat qobiliyatini saqlash uchun qulay shart-sharoitlarni qonunchilik yo'li bilan hamda boshqacha ijtimoiy himoya qilishni kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasida Mehnat Kodeksiga muvofiq xodim uchun ish vaqtining normal muddati haftasiga qirq soatdan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Olti kunlik ish haftasida har kungi ishning muddati yetti soatdan, besh kunlik ish haftasida esa sakkiz soatdan ortib ketmasligi lozim.

Ayrim toifadagi xodimlar uchun ularning yoshi, sog'ligi, mehnatning shartlari, mehnat vazifalarining o'ziga xos hususiyatlari va boshqa holatlarni inobatga olib, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar, shuningdek, mamlakatda mavjud bo'lgan mehnat shartnomasi shartlariga binoan mehnatga to'lanadigan haqni kamaytirmasdan, ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi.

Ish vaqtining qisqartirilgan muddati quyidagilar uchun belgilanadi:

- o'n sakkiz yoshga to'lmagan xodimlar;
- I va II guruh nogironi bo'lgan xodimlar;
- noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan xodimlar;
- alohida tusga ega bo'lgan ishlardagi xodimlar;
- uch yoshga to'lmagan bolalari bor, byudjet hisobidan moliyaviy jihatdan ta'minlanadigan muassasa va tashkilotlarda ishlayotgan ayollar.

Ish vaqtining haftasiga o'ttiz olti soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati mehnat jarayonida sog'lig'iga fizikaviy, kimyoviy, biologik va ishlab chiqarishning boshqa zararli omillari ta'sir etadigan xodimlar uchun belgilanadi.

Uchinchidan, jamiyat ijtimoiy-madaniy sohani aholini ijtimoiy

himoyalash talablari ustuvorligini hisobga olib rivojlantirishni kafolatlaydi. Jumladan, bu vazifa dam olish muassasalarining zarur tizimi, infratuzilmasini rivojlantirish yo'li bilan har kungi, har haftadagi va har yili dam olish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonda dam olish vaqti - xodim mehnat vazifalarini bajarishdan holi bo'lgan va bundan u o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanishi mumkin bo'lgan vaqtdir.

Xodimga ish kuni (smena) davomida dam olish va ovqatlanish uchun tanaffus berilishi kerak, bu tanaffus ish vaqtiga kiritilmaydi.

Tanaffus berish vaqti va uning aniq muddati ichki mehnat tartibi qoidalarida, smena grafiklarida yoki xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilab qo'yiladi.

Ishlab chiqarish sharoitiga ko'ra, dam olish va ovqatlanish uchun tanaffus berish mumkin bo'lmagan ishlarda ish beruvchi xodimga ish vaqtida ovqatlanib olish imkoniyatini ta'minlashi shart. Bunday ishlarning ro'yxati, ovqatlanish tartibi va joyi ichki mehnat tartibi qoidalarida belgilab qo'yiladi.

Mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan ish kuni (smena) davomida boshqa tanaffuslar ham belgilab qo'yilishi mumkin.

Ishning tugashi bilan keyingi kun (smena)da ish boshlanishi o'rtasidagi kundalik dam olish vaqtining muddati o'n ikki soatdan kam bo'lishi mumkin emas.

Barcha xodimlarga dam olish kunlari (har haftalik uzluksiz dam olish) beriladi.

Besh kunlik ish haftasida xodimlarga haftada ikki dam olish kuni, olti kunlik ish haftasida esa, bir dam olish kuni beriladi.

Umumiy dam olish kuni yakshanbadir.

Barcha xodimlarga, shu jumladan, o'rindoshlik asosida ishlayotgan xodimlarga, dam olish va ish qobiliyatini tiklash uchun ish joyi (lavozimi) va o'rtacha ish haqi saqlangan holda yillik mehnat ta'tillari beriladi.

Xodimlarga o'n besh ish kunidan kam bo'lmagan muddat bilan yillik

asosiy ta'til beriladi.

Yillik asosiy ta'til birinchi ish yili uchun olti oy ishlagandan keyin beriladi.

Ish yili mehnat shartnomasiga binoan ish boshlangan kundan e'tiboran hisoblanadi.

Ta'til quyidagi xodimlarga ularning xohishi bo'yicha olti oy o'tmasdan oldin beriladi:

-ayollarga-homiladorlik va tug'ish ta'tili oldidan yoki undan keyin;

-I va II guruh nogironlariga;

-o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga;

-muddatli harbiy xizmatdan zahiraga bo'shatilgan va ishga joylashgan harbiy xizmatchilarga.

Keyingi yo'nalish sog'liqni muhofaza qilish, maorif, ma'rifat va ijtimoiy mulk hisoblanadigan mamlakat hamda jahon madaniyati boyliklardan hammaning foydalana olishini nazarda tutadigan yuksak madaniyat darajasini rivojlantirish hisoblanadi.

Ijtimoiy himoya qilish ob'ektlari

Aholini ijtimoiy himoyalash ijtimoiy yordamning quyidagi turlari bilan ta'minlanadi:

- pensiyalar;
- nafaqalar;
- imtiyozlar, afzalliklar va xizmatlar;
- bir yo'la (nomuntazam)beriladigan moddiy yordam.

Quyidagilar ijtimoiy himoya ob'ektlari hisoblanadi;

- pensiya yoshiga yetganlar;
- nogironlar;
- boquvchisini yo'qotgan bolalar;
- kam ta'minlangan oilalar bolalari;
- ishsizlar;

- homilador ayollar va yosh bolalarga qarash bilan bandligi tufayli ishlamayotgan ayollar;
- kasallik tufayli vaqtincha ishlamayotganlar;
- o'quvchi yoshlar;
- mehnatga layoqatsizlarga qarash bilan band bo'lgan ishlamayotgan mehnatga layoqatli fuqarolar.

Pensionerlar - bular pensiya yoshiga yetganligi yoki nogironlik oqibatida mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslar, shuningdek, boquvchisini yo'qotgan bolalar (etimlar)dir. SHaxslarning bu doirasini ijtimoiy himoyalash pensiya ta'minoti tizimi orqali amalga oshiriladi.

Ishsizlar - bular turli sabablar tufayli ishini yo'qotgan va ishga joylashishi ishtiyoqi bo'lgan 16 yoshdan boshlab to pensiya yoshigacha mehnatga yaroqli shaxslardir. Bunday shaxslarni ijtimoiy himoyalash ishsizlik bo'yicha nafaqalar tizimi orqali amalga oshiriladi.

Kam ta'minlangan oilalar bolalari - bular har bir oila a'zosining umumiy daromadi rasmiy belgilangan tirikchilik qilish uchun zarur miqdordan kam bo'lgan oilalardagi mehnat qilish yoshiga yetmagan bolalardir. Ularni ijtimoiy himoyalash bolalar nafaqa tizimi orqali amalga oshiriladi. Aholini ijtimoiy himoya qilish keksalik, mehnat qobiliyatini yoki boquvchisini yo'qotishdan sug'urta tizimi (pensiya ta'minoti, shu jumladan, xususiy pensiya ta'minoti), kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy to'lovlar (bolalarga nafaqalar), vaqtincha ishlamayotganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (ishsizlik bo'yicha nafaqa), aholining ayrim toifalariga ularning moddiy ta'minoti va xizmatlarini hisobga olib imtiyoz va afzalliklar berish (patronaj xizmatlar shaklidagi ijtimoiy yordam, oziq-ovqat, yonilg'i berish va boshqalar), onalikni muhofaza qilish (tug'ishdan oldingi va tug'ishdan keyingi ta'tillarni berish), sog'liqni sug'urta qildirish (tibbiy sug'urta, vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganlik nafaqasi), o'quvchi yoshlarni moddiy qo'llab-quvvatlash (stipendiyalar), nogironlikning oldini olish va mehnat qobiliyatini tiklash (nogironlarni reabilitatsiya qilish, protez-ortopediya markazlari) orqali ta'minlanadi.

Davlat aholini ijtimoiy himoya qilish darajasini qonunchilik va qonun asosidagi xujjatlar orqali boshqaradi, tirikchilik qilish uchun zarur minimum darajasini belgilaydi va uni nazarda tutib, mehnatga to'lanadigan haqning eng kam miqdorini, ijtimoiy to'lovlarni, sug'urta badallarini va ijtimoiy yordam (imtiyozlar) turlarini belgilaydi, ijtimoiy himoya sohasidagi xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ammo, davlatning aholini ijtimoiy himoya qilish darajasini boshqarishdagi eng ta'sirli roli qo'shimcha ish joylarini, shu jumladan, nogironlar uchun ham ish joylarini tashkil etish, aholiga kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malaka darajasini oshirishdagi yordamini rag'batlantirishdadir.

Ijtimoiy himoya tizimi turmush darajasining to'la qashshoqlanishigacha pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslikka yo'naltirilganligini hisobga olib, "kambag'allik" tushunchasi kiritiladi, kambag'allik chegarasi va undan kelib chiqib, ijtimoiy yordamga "muhtojlik" mezoni aniqlanadi.

Ijtimoiy himoya turlari, shuningdek, moddiy madad miqdorlari joydagi ekologik muhit, qishloq xo'jaligi va sanoat bilan aloqani hisobga olib belgilanadi. Bunday madadni berish tartibi va uning miqdori boqimandalikning rivojlanishiga olib kelmasligi kerak.

Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi, uni rivojlantirish istiqbollari va qaror topish bosqichlarini shakllantirishda demografik vaziyatning aholini va mumkin bo'lgan o'zgarishlarni ham nazarda tutish kerak. Masalan, O'zbekistondagi demografik vaziyatning o'ziga xosligi shundan iboratki, bu yerda aholining yarmidan ko'prog'i mehnatga layoqatsiz hisoblanadi. Ammo, sobiq ittifoqning Yevropa qismidagi mamlakatlardan farq qilib, O'zbekistondagi mehnatga layoqatsiz aholining 60 foizga yaqinini bolalar tashkil qiladi, ya'ni 9,5 millionga yaqin kishi mehnat qilish yoshiga yetmagan va bunda aholining tabiiy o'sishining yuqori sur'ati saqlanib turibdi.

Mehnatga layoqatli yoshga yetmagan aholini ijtimoiy himoyalash shaxsning bozor sharoitlariga moslashish imkonini normal jismoniy hamda ma'naviy rivojlanishini ta'minlashi kerak. Respublikada ijtimoiy himoya asosan

kam ta'minlangan oilalar uchun turli nafaqalar berish, aholining ba'zi guruhi uchun imtiyozlar yaratish va kompensatsiya to'lash, davlat hisobidan yolg'iz qariya va nogironlarni boqish va shu kabi vositalar asosida amalga oshiriladi. O'zbekistonda bulardan tashqari norasmiy ijtimoiy yordam turlari ham mavjud: ularga qarindoshlarning o'zaro yordami, milliy va diniy urf-odatlar asosida qilinadigan yordam, korxonalar va idoralarning vaqt-vaqti bilan pensionerlarga yordam puli berishi kiradi. Bunday yordamlar faqat mehnatga layoqatsizlarga emas, balki kam ta'minlangan ko'p bolali oilalarga, beva-bechoralarga ham beriladi. O'zbekiston aholisini 2015 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan ijtimoiy himoya tizimining yagona kontseptsiyasi ishlab chiqilgan. Unda O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordam tizimi - pensiya ta'minoti, bolalarga nafaqa, yolg'iz keksalarga xizmat ko'rsatish, nogironlarni protez buyumlari, xarajat vositalari bilan ta'minlash, shuningdek mehnat va ijtimoiy jihatdan tiklash, tibbiy xizmat, ishsizlarni ishga joylashtirish va moddiy yordam berish, bir yo'la (nomuntazam) yordam yo'nalishlarida amalga oshirilishi belgilangan. Shuningdek, maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilariga nonushta tayinlash ham ijtimoiy himoyaning bir bo'lagidir.

Respublikada bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoyaning amalga oshirishning asosi bo'lib, mustaqillik yillarida qabul qilingan qonunlar farmoish va qarorlar tashkil topadi.

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrdagi «Fuqarolarning davlat Nafaka ta'minoti to'g'risida»gi qonuni nogironlik nafaqasi tayinlashni ham nazarda tutadi. Ularning miqdorlari mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasiga bog'liq.

Nogironlik nafaqalari nogironlik boshlangandan: ish davridagi, ishga kirguncha yoki ishni to'xtatgandan keyin, undan qat'iy nazar, tayinlanadi.

Mehnatda mayiblanishi yoki kasb kasalligi tufayli nogiron bo'lganlarga nafaqa ish stajidan qat'iy nazar tayinlanadi. Agar nogironlik mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lmasa, u holda nafaqa tayinlash uchun yoshiga doir bog'liq

holda staji talab qilinadi. Talab qilinadigan ish staji ko'p emas. Masalan, 26 yoshdan 31 yoshgacha bo'lgan fuqaroga faqat 5 yil, 46 yoshdan 51 yoshgacha bo'lgan fuqaroga 14 yillik ish staji talab qilinadi. Umuman kasallikdan I va II guruh nogironi bo'lgan fuqarolarga nafaqa ularda talab qilingan ish staji bo'lmaganda mavjud stajga mutanosib ravishda tayinlanishi mumkin.

«Fuqarolarning davlat nafaqa ta'minoti to'g'risida»gi qonunga muvofiq uchinchi tur nafaqa - bu boquvchisini yo'qotganlik nafaqasidir. Vafot etgan boquvchining oila a'zolari, agar ular mehnatga qobiliyatsiz bo'lsalar va vafot etganining qaramog'ida turgan bo'lsalar, nafaqa olish xuquqiga egadirlar. 16 yoshga to'lmagan yoki bu yoshdan katta bo'lsa ham nogiron bo'lib qolgan bolalar oilalarining mehnatga qobiliyatsiz a'zolari deb hisoblanadilar. qonun qaramog'ida bo'lishi shartini marhumning to'liq boquvida bo'lishi yoki undan yordam olib turishi, bu yordam ular uchun doimiy va asosiy kun kechirishi mablag'ining manbai hisoblanadi.

Nafaqa yoshiga yetgan ota-ona, er-xotin mehnatga qobiliyatsiz hisoblanadi. Ma'lum sharoitlarda aka-ukalar, opa-singillar, buva-buvilar ham mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosi hisoblanadilar. Agar oila a'zosi vafot etgan boquvchining to'liq qaramog'ida bo'lsa yoki undan yordam olib turgan bo'lsa, bu yordam unga yashash uchun asosiy mablag' manbai bo'lsa, vafot etgan boquvchining oila a'zosi hisoblanadi. Karamog'ida turganlikni hammavaqt ham talab qilinavermaydi. Masalan, vafot etgan shaxsning bolalariga boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi u vafot etgan boquvchining qaramog'ida turmagan, turganligidan qat'iy nazar tayinlanadi. Umumiy qoidaga ko'ra ish vaqti mehnat stajiga bir hissa miqdorida hisobga olinadi. Biroq mehnat faoliyatining ba'zi davrlari imtiyozli miqdorlarda hisobga olinadi. Bunda uning hayot uchun, sog'liq uchun xavfliligi inobatga olinadi. Zobitlar, praporshiklar, muddatli xizmatning harbiy xizmatchilari tarkibida bo'lgan shaxslar, ichki ishlar organlarining rahbar va oddiy xizmat nafaqasi bilan ta'minlanadi.

Nogiron bo'lgan harbiy xizmatchilar, ichki ishlar xodimlarining rahbar va oddiy tarkibidagi shaxslar nogironlik nafaqasi olish huquqiga egadirlar. SHU

toifadagi shaxslardan bo'lgan vafot etgan nafaqaxo'rlarning oilalariga boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi tayinlanadi. Harbiy xizmatda yoki ichki ishlar organlari xizmatida 20 va undan ortiq yil ishlagan shaxslar ko'p yillik nafaqasini olishi mumkin.

Bolalikdan nogironlarga, qariyalar va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 24 iyundagi 319 - son qarori bilan tasdiqlangan Nizom bilan boshqarib turiladi.

Davlat ijtimoiy sug'urtasiga doir nafaqani tayinlash va to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, Moliya vazirligi, Ijtimoiy ta'minot vazirligi, Mehnat vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmasi federatsiyasi kengashi tomonidan 1993 yil 3 dekabrda 1994 yil 14 fevralgacha tasdiqlangan Nizom bilan boshqarib turiladi. Nizomga muvofiq ijtimoiy sug'urtasi nafaqasi vaqtincha mehnatga qobliyatsizlik boshlanganda, xomiladorlik va tug'ishida, bola tug'ilganda va dafn marosimi uchun nafaqa tayinlash va ularni miqdorlarini belgilash shart-sharoitlari batafsil ko'rsatib o'tilgan.

«Fuqarolarning davlat nafaqa ta'minoti to'g'risida»gi qonunning 52-moddasiga muvofiq ishlamaydigan nafaqaxo'rlarga, shuningdek, oilaning boshqa a'zolariga boquvchisini yo'qotganlik nafaqasini oluvchi, ishlovchi nafaqaxo'rlarga nafaqa o'zlari yashab turgan ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan to'liq belgilangan miqdorda tayinlanadi. Nafaqadan soliqlar olinmaydi, uni uyga eltib berish, jo'natish davlat hisobidan amalga oshiriladi. qonunning 53-moddasida ishlovchi nafaqaxo'rlarga nafaqa to'lash ish joyida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6 aprel 2007 yildagi 616-sonli qaroriga asosan, mehnat bozorining samarali ishlashi va tartibga solinishi O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining eng muhim vazifalari deb hisoblangan va unga ko'ra ushbu vazirlikning zimmasiga quyidagilar yuklatilgan:

– mintaqalar bo'yicha mehnat bozorini shakllantirishda samarali siyosatni amalga oshirish, demografik omillarni, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va tarkibiy qayta tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlarini e'tiborga olgan holda bandlikning yangi shakllarini keng tatbiq etish hisobiga aholi bandligining o'sishini ta'minlash;

– demografik o'zgarishlar va kadrlarning kasbiy tayyorgarligi bilan bog'liq o'zgarib borayotgan talablarni hisobga olgan holda mehnat, ish bilan bandlik va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasidagi qonun hujjatlarini ishlab chiqish va yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

– ishga joylashishga muhtoj, ish bilan band bo'lmagan aholiga kasbiy qayta tayyorlash va ishga joylashtirish bo'yicha sifatli xizmatlar ko'rsatish;

– aholining ehtiyojmand toifalarini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash, kamxarj oilalar, nogironlar va yolg'iz keksalarga yordam ko'rsatishda tabaqalashtirilgan tarzda va aniq yondashuvni kuchaytirish;

– mehnat, bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan qattiq nazoratni amalga oshirish, mehnat munosabatlarini moddiy rag'batlantirish va mehnatni muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Mehnat bozori faol siyosat olib borishning eng samarali yo'nalishlaridan biri mehnat bozorining eng muhim instituti bo'lgan ish bilan bandlikning ixtisoslashgan umummilliy xizmatidir. Uning asosiy vazifasi mehnat bozori haqidagi axborotning tarqalishi hisobiga uning samaradorligini oshirishdan iboratdir. U, birinchidan, ishsizlarning bo'sh ish o'rinlari qidirishlariga, tadbirkorlarning xodimlar qidirishlariga sarf etiladigan vaqtni qisqartirishni ta'minlaydi, ikkinchidan, ish beruvchilarning o'z talablariga eng ko'p darajada mos keladigan xodimlar yollashiga yordam beradi, xodimlarga esa mehnat sharoitlari va ish haqi darajasi muvofiq keladigan ish joyini topishlariga imkon beradi.

Bundan tashqari, ish bilan bandlik xizmati vazifalariga quyidagilar kiradi:

ish qidiruvchilarga kasblar bo'yicha maslahatlar berish va ishsizlarni yangi mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish; nogironlar, yoshlar, harbiy xizmatdan bo'shab kelgan yoshlar va fuqarolarning ijtimoiy jihatdan himoya qilinishga muhtoj bo'lgan boshqa guruhlar uchun ish joylarini band qilib qo'yish; ish kuchuni hududlar bo'yicha qayta taqsimlash; oddiy yo'l bilan ishga kira olmaydigan fuqarolarning (ko'p bolali va yolg'iz ota-onalarning) ish bilan bandligiga qo'maklashish uchun ish o'rinlarini qo'llab-quvvatlash; ishsizlarning tadbirkorlik va mustaqil faoliyati bilan shug'ullanishlariga yordam ko'rsatish; ommaviy ishdan bo'shatishlarni to'xtatib qolish uchun kompensasiya to'lovlarini amalga oshirish.

Respublikamizda davlat ish bilan bandlik xizmati 1991 yilda tashkil etilgan edi. Ish bilan bandlik xizmati ishining asosiy tamoyillarixalqaro tajribaga mos keladi. Masalan, aholining ish bilan bandligi to'g'risidagi qonunga ko'ra davlat fuqarolariga o'zlari uchun mos keladigan ish tanlashda va ishga joylashda bepul yordam ko'rsatadi, ishsizlarga bepul ta'lim olish imkoniyati yaratib beriladi, yangi kasbga o'qiyotgan vaqtda stipendiya to'lanadi, haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish imkoni beriladi, ishsiz fuqarolar daromadlarini qo'llab-quvvatlash siyosati amalga oshiriladi. Ish bilan bandlik xizmati murojaat qilgan mehnatkashlarga va ish beruvchilarga ishga ega bo'lish imkoniyati haqida va ish kuchi bilan ta'minlash to'g'risida, biror kasb egallashni istaydigan fuqarolarga qo'yiladigan talablar haqida axborotlar beriladi; fuqarolarning o'zlariga mos keladigan ish topishlarida, ish beruvchilarga esa zarur xodimlar tanlashda ko'maklashadi. Ish bilan xizmati ish beruvchilarga yoshlar, nogironlar, yolg'iz va ko'p bolali ota-onalar uchun ish o'rinlari saqlash va yaratish dasturlarini qo'llab-quvvatlashni kafolatlaydi. Sanoati rivojlangan mamlakatlardagi ishga joylashtirish byurolari kabi respublika ish bilan bandlik xizmati organlari ish o'rinlarini taklif qilish va ish kuchiga bo'lgan talab va taklif to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni, axborot materiallarini e'lon qilib borishni ta'minlaydilar.

Bugungi kunda mamlakatimizda aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha

amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

1. Aholining ish bilan bandligi tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish hamda ishsiz aholini yangi, mehnat bozorida raqobatdosh kasb-hunarlariga o'rgatish.

2. Ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ayniqsa tarkibiy o'zgartirish va diversifikasiya masalalariga e'tiborni kuchaytirish. Bu yangi ish o'rinlari yaratish bilan bir qatorda ichki va tashqi iste'molga mo'ljallangan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni ham ko'zda tutadi.

3. Ish bilan bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlar faoliyatini takomillashtirish, bunda eng avvalo ushbu markazlar tuzilmasini maqbullashtirish, global inqiroz sharoitida ustuvor chora-tadbirlarni belgilab olish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalaridan kelib chiqqan holda, aholini ish bilan ta'minlash uchun ajratilayotgan moliyaviy mablag'larni oqilona taqsimlash chora-tadbirlarini amalga oshirishni talab etadi.¹⁷

Tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, keyingi olti yil mobaynida 2895 ming kishiga ko'payib, ushbu ko'rsatkich mazkur yillarda 10,9 foizga oshganini ko'rsatmoqda. Bunday holat respublikamizda demografik vaziyatning murakkabligidan dalolat beradi. Chunki mehnat bozorida demografik "bosim"ning kuchayishi yoshlarning ish bilan ta'minlash muammosini kuchayishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, mehnat resurslari soni eng yuqori o'sish ko'rsatkichiga ega bo'lib, 2007-2012 yillarda 2692,1 ming kishiga, 'ni 117,7 %ga o'sgan. Respublikamizda ish bilan bandlar soni esa bu davrlar oralig'ida 14,3 %ga oshgan.

Shuningdek, respublikamizda ishsizlik darajasi tahlil etilayotgan yillra ichida muntazam kamayib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

Iqtisodiyotni tarmoqlari buyicha qishloq va o'rmon xo'jaligida ish bilan bandlar hissasi 2006-2012 yillar ichida kamayish (84,6 %), sanoat va noishlab

¹⁷Zokirova N., Abdurahmonov O. Inqiroz: oqibatlar, bartaraf etish, mehnat muammolari va yangi marralarga chiqish. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 136-138-betlar

chiqarish sohasida o'sish (108,7 %, 110,9 %) tendensiyasiga ega.

Bugungi kunda dehqon xo'jaliklarini tashkil etishda qator yutuqlarga erishilmoqda va ularni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- xo'jalikni tashkil etishning ixchamligi va ularning bozor muhitiga tezda moslashuvchanligi;
- xo'jalik a'zolarining ma'lum bir oilaga mansubligi;
- oila mablag'lari hisobidan ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatining mavjudligi;
- mehnatni tashkil qilish va xo'jalikni boshqarishdagi qulayliklar.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlariga qaraganda, dehqon xo'jaliklarida ish bilan band bo'lgan aholi soni 1472,5 ming kishidan 1745 ming kishiga yoki 18,5 foizga ortgan.

Shunday qilib, mamlakatda amalga oshirilayotgan oqilona iqtisodiy siyosat tufayli bandlikning kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik kabi aholining tadbirkorlik qobiliyati va bunyodkorlik mehnati salohiyatini namoyon qilishga ko'maklashuvchi samarali shakllari rivojlandi.

Ijtimoiy sohani tartibga solishda bozor mexanizmining roli va ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya masalasi davlat siyosatining markazida turadigan masalalar qatoridan joy olgan. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida «xalq faravonligini barqaror muttasil oshirishni, aholi ijtimoiy himoyalaniishi ustuvor yo'nalish qilib belgilab, shu yo'l bilan islohotlar faqat inson manfaatlarini ko'zlab, uning qoidamizni yana bir tasdiqlagan bo'lamiz»¹⁸ deb ta'kidlab o'tdilar. Aholini ijtimoiy himoya qilish asosiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

-narxlarni erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasini ortib borishi hisobga olingan holda daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasi muntazam oshirilib borildi;

-respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat

¹⁸Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda, Toshkent. «O'zbekiston», 1999.

mahsulotlari va nooziq-ovqat mollarining asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turishga harakat qilindi;

-aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab quvvatlashga qaratilgan faol ijtimoiy siyosat o'tkazildi.

Ijtimoiy sohani tartibga solishda bozor mexanizmini va markazlashtirilgan boshqaruvning biriktirilishi va takomillashtirishdir. Aholining o'sishi yuqori sur'atlar bilan borayotgan O'zbekistonda aholining ish bilan bandligi masalasi doimo eng muhim va o'tkir masalalardan biri bo'lib kelgan va hozir ham shunday bo'lib kelmoqda.

Mulkchilik shakllari bo'yicha ish bilan ta'minlanish tarkibida muhim o'zgarishlar ro'y bermoqda. Hozirgi vaqtda iqtisodiyotning nodavlat sektorida iqtisodiyotda band bo'lgan barcha kishilarning 76,0 foizi mehnat qilmoqda.

Ishsizlik haddan tashqari o'sib ketishiga yo'l qo'ymaslik O'zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirishning asosiy vazifalaridan biridir. Buning uchun respublikada mehnat bozorini faol tarzda muvofiqlashtirib borishning turli shakllari va usullari qo'llanilmoqda 250 dan ziyod punktlarni o'z ichiga olgan keng tarmoqli bandlik xizmati tizimi vujudga keltirilgan. Respublikaning har bir shahar va tumanlarida mehnat bo'linmalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Mutaxassislar hisob-kitoblariga ko'ra tabiiy va jismoniy resurslar iqtisodiy o'sishning 40 foizigina ta'minlashga qodir ekan, iqtisodiy o'sishning qolgan 60 foizini insoniy omillar-ishchi kuchi, malakani oshirish, sog'liqni saqlash, ta'lim-tadqiqot ishlari uchun sarf xarajatlar iqtisodiy o'sishning asosiy manbalariga aylanmoqda.

Xulosa

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tishi va mamlakatda amalga oshirilgan keng ko'lamdagi islohotlar hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida yoshlarning tutgan o'rnini masalasini nihoyatda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham, mustaqillikning ilk kunlaridanoq yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarning tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunda jamiyatning yangilanishi, amalga oshirilayotgan islohotlar, rejalarning samarasi, avvalambor zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli yosh mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasi bilan bog'liq. Mamlakatda har yili 600 mingdan ziyod butunlay yangicha shart-sharoit va muhitda kamol topgan yosh avlod vakillari katta hayotga yo'llanma olmoqda. Shuningdek, aholining asosiy qismini tashkil etadigan yoshlarning hali to'la echilmagan muammolariga e'tiborni jalb etish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash faqat davlat organlari, o'quv yurtlarini emas, balki keng jamoatchilikning ishtirokini ham talab qiladi.

Aholi pul daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishidan kelib tushadigan daromadlarni o'z ichiga oladi. Natural daromad mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo'jaliklarining o'z iste'mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlaridan iborat bo'ladi.

Aholi turmush darajasi tushunchasini ularning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasi sifatida aniqlash mumkin.

Farovonlikning eng quyi chegarasini oila daromadining shunday chegarasi bilan belgilash mumkinki, daromadning bundan past darajasida ishchi kuchini

takror hosil qilishni ta'minlab bo'lmaydi. Bu daraja moddiy ta'minlanganlik minimumi yoki kun kechirish darajasi (qashshoqlikning boshlanishi) sifatida chiqadi.

Dunyodagi barcha mamlakatlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar darajasi bilan bir-biridan keskin farqlanadi. Bu turli mamlakatlar aholisining daromadlari darajasi o'rtasida tengsizlik mavjudligini bildiradi.

Davlatning ijtimoiy siyosati tegishli markazlashgan daromadlarni tabaqalashgan soliq solish yo'li bilan shakllantirish va uni byudjet orqali aholi turli guruhlari o'rtasida qayta taqsimlashdan iborat.

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo'nalish – bu narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi.

Kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muhitini ta'minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar etkazib berish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ikkilamchi bandlikni ta'minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy texnikaviy inqilobni jadallashtirish, resurslarni ishlab chikarishga safarbar etish; soliq tushumlari hajmining o'sishining ta'minlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatimizda o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish vazifasini hal etadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni aholi bandligini ta'minlaydigan va uning asosiy daromad manbai bulgan muhim sohaga aylanadi. Ishchi kuchiga talabni oshishi bo'yicha iqtisodiy tadbirlardan eng asosiysi iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishdir. Bunga eng avvalo mulkchilik shakllarini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi ish joylarini yaratish,

moddiy va ma'naviy manfaatdorlikni ko'tarish (sohaga investitsiyalar kiritish) orqali erishiladi.

Respublikamiz mintaqalarida aholining bandligini oshirish, ishchi kuchidansamarali foydalanishda quyidagilarni amalga oshirish maksadga muvofiq, ya'ni:

-bank kreditlari hisobidan xizmat ko'rsatish va servis sohasinirivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish;

- ma'lumki, mamlakatimizda aholining 62,5 dan ko'progi qishloq joylarida yashaydi. Shunga muvofiqmehnatga yaroqli aholining ham shuncha qismi qishloq aholisi hisobiga to'g'ri keladi. Shuning uchun qishloq aholisining faoliyati sohalari va turlarini kengaytirish talab qilinadi;

-ayni paytda bugun alohida muhim ahamiyat kasb etadigan yana bir masala yoshlarni, bo'lg'usi kadrlarni tayyorlash sifati bilan bog'liq. Tabiiyki, bu borada pedagogik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi qanday tashkil etilgani hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu masala umumiy, o'rta va o'rta maxsus ta'limni islohqilish tizimining eng dolzarb vazifasi bo'lmog'i zarur. Listey va kollejarimizda ta'lim jarayonlariga oliy o'quv yurtlarining tajribali amaliyotchi va o'qituvchilarini yanada keng va faol jalb etish lozim;

-ijtimoiy yo'naltirilgan mehnat bozori faoliyatini yildan yilga kengaytirib borib, ular tomonidan o'tkazilayotgan mehnat yarmarkalarini muntazam o'tkazishini ta'minlash zarur;

-ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga soluvchi mustahkam rivojlangan mahalliy va xorijiy bandlik xizmati tashkilotlari tiziminitakomillashtirish lozim.

Respublikada yangi ish joylarini tashkil etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik salohiyatidan maqsadli foydalanish natijasida aholi bandlik darajasi va daromadlarini oshirish buyicha chuqur iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish zarur.

Mamlakatimizning yoshlar mehnat bozorida talab va taklif muvozanatini ta'minlash maqsadida ularni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishini rag'batlantiruvchi chora tadbirlarni amalga oshirish, ya'ni: yosh tadbirkorlarga moliya kredit va xom ashyo resurslarini olishlarida yordam berish tizimini shakllantirish; yosh tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish; yosh tadbirkorlarni tayyorlash va qaytatayorlash, malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish lozim.

Yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, oilaviy biznes va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish; uy mehnati (kasanachilik)ni rivojlantirish; yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushurish, mavjud quvvatlardan unumli foydalanish, korxonalarni kengaytirish; ishlab chikarish, bozor va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish; fermer va aholi xo'jaliklari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish, intensiv texnologiyalarni joriy etishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishini yozish mobaynida kelib chiqqan quyidagi takliflarimizni bermoqchimiz:

1. Aholi bandligining samarali shakllarini rivojlantirish, jumladan, kasanachilik faoliyatini kengaytirish, mustaqil ish bilan bandlik, shu jumladan, shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida qoramol boqish hamda boshqa turdagi ish bilan bandlikni rag'batlantirish bevosita aholi daromadlarini oshishiga olib kelishi lozim.
2. Yirik sanoat korxonalari atrofida kichik, unga xizmat qiluvchi korxonalar va mikrofirmalarni tashkil etishni kengaytirish asosida yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi ko'p istiqomat qiluvchi qishloq joylarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini chuqurroq olib kirish lozim.
3. Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish va qishloq joylarda qishloq xo'jaligiga ta'lluqli bo'lmagan bandlik sohalarini kengaytirish masalalarini hal etishga e'tiborni kamaytirmaslik kerak.

5. Aholi daromadlarini oshirishda hozirgi kunda kichik biznesni ahamiyati katta. Kasb hunar kolleji o'quvchilari uchun dars o'tish jarayonining texnologik xaritasi batafsil yoritib berilgan. Bu borada bilimlarni chuqur o'rgangan holda kelajakda shu sohani rivojlantirishga erishish maqsad qilib qo'yilgan.

6. Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati mavzusida elektron ko'rkazmali taqdimoti usulida talabalarga dars o'tish. Bunda jadvallar, sxemalar, rasmlar, diagrammalar va savol javoblardan foydalangan holda darsni qiziqarli qilib o'tishdan iborat. Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonida dars o'tish talabalarning bilim saviyasini ko'taradi va qiziqish uyg'otadi.

Yuqorida keltirilgan xulosa va takliflarning amaliyotga tadbiiq etilishi O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida aholi daromadlarini yanada oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan manbaa va adabiyotlar ro'yxati:

I. Me'yoriy-huquqiy manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – 38 b.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – Toshkent: SHarq, 1997. – 48 b.
3. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 48 b.
4. O'zbekiston Respublikasi qonunlari. - Toshkent: O'zbekiston, 2004. – 248 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustda qabul qilingan «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi qarori // Xalq so'zi, 2006 yil 26 avgust.
6. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari tug'risidagi Qonun. (1991 yil 20 noyabr', 2004 yilda kiritilgan o'zgartirishlar kiritilgan) <http://www.lex.uz/>
7. “Jamoat tashkilotlari to'g'risida”gi Qonun (1991 yil 15 fevral', so'nggi o'zgartirishlar 2004 yil 30 aprel') // Xalq so'zi, 2004 yil 1 may.
8. “Axolini ish bilan ta'minlash to'g'risida”gi Qonun (1992 yil, yangi tahrir-1998 yil) // Xalq so'zi, 1998 yil 20 avgust.
9. “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi Qonun (1999 yil 14 aprel') // Xalq so'zi, 1999 yil 20 aprel'.
10. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida”gi Qonun (1999 yil 14 aprel'). // Xalq so'zi, 1999 yil 20 aprel.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 30 maydagi "O'zbekiston yoshlarining “Kamolot” ijtimoiy harakati faoliyatini tashkil etishga ko'maklashish to'g'risida”gi 240-sonli Qarori // Xalq so'zi, 2001 yil 3 iyun.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi to'g'risida”gi 2004 yil 21 maydagi PF-3431 Farmoni // Xalq so'zi, 2001 yil 30 may.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kamolot” yoshlar ijtimoiy

harakati faoliyatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi qarori // Xalq so'zi, 2006 yil 10 oktyabr.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" PF-4456-son farmoni, 2012 yil 24-iyul.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" 365-sonli qarori, 2012 yil 28-dekabr.

16. Cog'lom bola yili Davlat dasturi // Xalq so'zi, 2014 yil 19 fevral.

II. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimovning asarlari:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. –Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 71.b

2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 380 b.

3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 384 b.

4. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolini asosiy tamoyillari. – Toshkent: O'zbekiston, 1995, – 56 b.

5. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. –Toshkent: O'zbekiston, 1995. – 68 b.

6. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. – Toshkent: Sharq, 1998. – 32 b.

1.7. Karimov I.A Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lidan. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 429 b.

7. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 28.b

8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo`limiz bilan quramiz. 7-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 410 b.

9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. – Toshkent: O`zbekiston, 2000. – 528 b.
10. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – Toshkent: O`zbekiston, 2001. – 36 b.
11. Karimov I.A. Biz tanlagan yo`l demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li. 11- jild. – Toshkent: O`zbekiston, 2003. – 320 b.
12. Karimov I.A. Tinchlik va havfsizligimiz o`z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat`iy irodamizga bog`liq. 12-jild. – Toshkent: O`zbekiston, 2004. – 400 b.

III. Ilmiy, o`quv adabiyotlar:

1. Bobojonova D.B. O`zbekistonda demografik jarayonlar va ularning xususiyati. – Toshkent: Fan, 1995. – 94 b.
2. Buronova D. O`zbekistonda yoshlar siyosati: bosh tamoyillar va ularning mohiyati. – Toshkent: G`.G`ulom, 2008. – 91 b.
3. Bekmurodov A., G`afurov U., Mustafaqulov Sh., Kattaev N. Bu muqaddas vatanda azizdir inson. – Toshkent: G`afur G`ulom, 2010. – 148 b.
4. Islomov Z.M. O`zbekiston: modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. – Toshkent: O`zbekiston, 2005. –208 b.
5. Gayupova SH., Kalonov K., Ismailova R. O`zbekiston yoshlarida dunyoqarash uyg`unligining shakllanishi muammolari. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004. – 112 b.
6. Juraev N, Fayzullaev T. Mustaqil O`zbekiston tarixi. 3-jild. – Toshkent: Sharq, 2000.
7. Murtazaeva R. O`zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag`rikenglik. – Toshkent: Universitet, 2007. – 184 b.
8. Mavrulov A Ma`naviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: O`zbekiston, 2008. – 80 b.
9. Mahmudov T. Mustaqillik va ma`naviyat. – Toshkent: SHarq, 2001. – 124 b.

10. Saifnazarov I.S. Iqtisodiy va ma`naviy manfaatlar uyg`unligi va barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – 166 b.
11. Topildiev O.R. Yoshlar – kelajak bunyodkorlari. – Namangan, 2013. – 160 b.
12. va sog`lom avlod tarbiyasi.– Toshkent : O`zbekiston, 2000 – 108 b.
13. Yusupov E. Oila-ma`naviyat bulog`i. – Toshkent, 2003. – 128 b.

IV. Davriy nashrlar materiallari:

1. Abdullaev U. Millat etnik totuvlik va tolerantlik // Jamiyat va boshqaruv jurnali. 2005. №3. – 34 b.
2. Yoshlar - kelajak bunyodkori // 21 asr, 2007 yil 10 dekabr. O`zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo`mitasi ma`lumoti.
3. Tillaeva G. Ijtimoiy himoya-dolzarb masala (Yoshlar tarbiyasi misolida) // Falsafa va huquq. 2007. – № 2 – B. 30.
4. G`ulomova D. Tarixiy xotira va yoshlar // Fidokor, 2001yil 18 oktyabr.
5. Shamsieva I. Yosh avlod ma`naviy rivojiga internetning ta`siri va axborot psixologik ta`sir xavfsizlik muammosi // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. 2007, №1, – B. 172.
6. Topildiev O. Yoshlar ma`naviyatiga internetning mafkuraviy ta`siri // “Globalashuv sharoitida yoshlarni ma`naviy-axloqiy shakllanishining dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2013. – B. 22-24.

V. Internet materiallari:

1. [http: www.gov.uz/news/](http://www.gov.uz/news/)
2. [http: www.ziyonet.uz/news/](http://www.ziyonet.uz/news/)
3. [http: www.huquq-gazeta.uz](http://www.huquq-gazeta.uz)
4. [http: www.lex.uz//po_sostoyaniyu_na_11_oktyabrya_2008_goda.](http://www.lex.uz//po_sostoyaniyu_na_11_oktyabrya_2008_goda.)
5. <http://www.nuz.uz/rubrik/detail/587/1974/>
6. <http://www.fikr.uz/news/12>